

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Filologiya fakulteti 5141100 - o‘zbek tili va adabiyoti
bakalavr ta`lim yo‘nalishi bitiruvchisi

YULDASHEVA FAZILATning

**“HUSNIDDIN SHARIPOV SHE`RIYATIDA LIRIK
OBRAZ TALQINI”**

mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

NUKUS – 2011

Malakaviy bitiruv ishi O‘zbek adabiyoti kafedrası yig`ilishining 2011-yil
“_____” _____ dagi № _____ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya
qilindi.

Fakultet dekani:	f.f.n.,dots.K. Tashanov
Kafedra mudiri:	f.f.n.S.Matyakupov
Ilmiy rahbar:	f.f.d., prof.K.Quramboev

Yuldasheva Fazilat Kamalovnaning “Husniddin Sharipov she`riyatida lirik
obraz talqini” mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga Davlat attestatsiya
komissiyasining qarori bilan ball "____" ball ("____%") qo‘yildi.

"____" _____ 2011-yil

DAK kotibasi:	S.Bekchanova
---------------	--------------

M U N D A R I J A

1. KIRISH	4
2. ASOSLAMA	6
3. I BOB	
Lirik qahramon yaratishdagi dastlabki urinishlari	7
4. II BOB	
Shoir dostonlarida lirik obrazning badiiy talqini	50
5. X U L O S A	51
6. Foydalangan adabiyotlar ro`yxati	53

K I R I S H

XX asr o'zbek adabiyoti ijodkorlarga boy adabiyot. Bu davrda adabiyotning turli janrlardagi asarlari yozildi. Hamma janrlar ham muvaffaqiyatli rivojlandi deb aytishga asoslar etarli.

Sho'ro davri adabiyotida faol qalam tebratgan shoirlar ko'p. Shulardan biri Xusniddin Sharipovdir. X.Sharipov o'zbek adabiyotiga o'tgan asrning 50 yillarining birinchi yarmida kirib keldi. O'ziga xos ovoz, o'ziga xos uslubda qalam tebrata boshladi. Dastlabki she'rlarini matbuotda, gazeta-jurnallarda bostirdi. Keyinchalik she'riy to'plamlari bosilib chiqqan boshladi.

U adabiyotda Erkin Vohidov, Gulchehra Jo'raeva, E'tibor Oxunova, Barot Boyqobulova, sal keyinroq, Abdulla Oripov, Rauf Prafi, Muhammad Ali, Xalima Xudoyberdieva, Oydin Xojieva kabi shoirlar va shoiralar bilan bir davrda qalam tebratdi. Bu shoirlar orasida o'ziga xos poetik ovozi bilan alohida ajralib turdi. O'tgan asrning 50 yillarining boshlarida X.Sharipovning she'rlari, to'plamlari darhol adabiyotshunos va tanqidchilarning nazariga tushdi. O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, I.Sulton kabi adabiyotshunoslar uning asarlariga baho berishdi, matbuotda maqolalari bilan chiqdilar.

X.Sharipov hozirga qadar o'ttizga yaqin she'riy kitoblar bostirib chiqarishga ulgurdi. Uning har bir she'riy dostoni, to'plami faqat o'quvchilar tomonidangina emas, adabiy tanqid tomonidan ham iliq kutib olindi. O'zbek she'riyatiga yangi ovoz paydo bo'layotgani qayd etildi.

X.Sharipov faqat she'riy janrda emas, balki doston janrida ham faol qalam tebratdi. U orqali o'zbek adabiyotida doston janrining taraqqiyotiga o'ziga xos hissa qo'shdi. X.Sharipov she'riyatining bosh mavzusi mehnat, insonlar faoliyati, ularning jamiyat va jamoatdagi o'rniga talqin qilishdir. Shoir dostonlarining bosh qahramonlari ham shular. Shu ma'noda

H.Sharipov zamon bilan qadamma-qadam kelayotgan, ijodining negiziga inson taqdirini qo'yib, uning rang-barang ruxiy dunyosini tahlil qilishga mohir shoirdir. Biz bular haqida ishimizning boblarida batafsilroq so'z yuritamiz.

X.Sharipov ijodi yuqorida qayd etganimizdek, o'zbek adabiyotshunoslarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Sho'rolar davrida ham shoir ijodi adabiyotshunoslar nazaridan tushmagan edi. Biroq mustaqillikka erishgandan keyin, bizning shaxsiy ko'zatishimiz bo'yicha, adabiyotshunoslar nazaridan chetda qolib ketayotgandek tuyuladi. O'zbekiston Qahramoni, atoqli adabiyotshunos olim va tanqidchi O.Sharafiddinovning istiqlol yillarida yozgan ba'zi maqolalari istisno qilsak, X.Sharipov ijodi to'g'risida bundan salmoqliroq ilmiy asarga duch kelmadik. O'zbek adabiyotshunosligidagi bu bo'shliqni ozgina to'ldirish maqsadida ushbu mavzuni bitiruv malakaviy ishimizga tanladik hamda uni o'z imkoniyatimiz darajasida yoritishga harakat qilamiz.

Albatta, bu ishimizni yozish jarayonida so'nggi yillarda o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida mustaqillik davri o'zbek she'riyati haqidagi tadqiqotlardan foydalanishga harakat qilamiz. O.Sharafiddinov, B.Nazarov, M.Qo'shjonov, N.Rahimjonov va boshqa olimlarining mustaqillik davri o'zbek adabiyoti, jumladan she'riyati xususiyatdagi qarashlariga tayanib so'z yuritishga harakat qilamiz.

A S O S L A M A

Bu yil O'zbekiston mustaqillikka erishganiga 20 yil bo'ladi. Shu maddat ichida respublikamiz barcha sohalarida katta yutuqlarga erishdi. Ayniqsa, adabiyot, san'at va madaniyat, xususan ta'lim sohasidagi o'zgarishlar kimni bo'lsa da quvontiradi. Prezidentimiz I.A.Karimovning adabiyotga e'tibori o'zbek adabiyotining yanada gullab yashnashida katta rol o'ynamoqda. Yurtboshimizning "Yuksak ma'anviyat-engilmas kuch" (2008), "Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" (2009) asarlari va ularda adabiyotning taraqqiyoti uchun qayg'urib aytilgan gaplari o'zining samaralarini berib kelmoqda.

Prezidentimizning yuqoridagi tilga olingan risolalarida sho'ro davri adabiyotiga, uni o'rganish zarurligi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Bu davr adabiyotiga qanday munosabatda bo'lish rejalari ham aytilgan. Chindan ham hozirgi sharoitda sho'ro davri adabiyotining yaxshi asarlarini nashr etish, tartib qilish ishlari ham qizg'in ketmoqda. Bu davr adabiyoti haqida tadqiqot ishlari yozish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan deb aytsa bo'ladi. Bizning mazkur jajji tadqiqotimiz ham mana shu yo'nalishdagi ko'rinishlardan biri. Sho'ro davrida yashab ijod etgan shoirlar ijodiga nazar tashlap, ularning bugungi adabiyotimiz uchun kerak asarlarini targ'ib qilishga qaratilgandir.

Tadqiqotimiz ob'ekti taniqli shoir X.Sharipov shunday fidoiy ijodkorlardan biridir. U bugun ham faol qalam tebratib kelayapti. Dostonlar, she'rlar yaratib o'zbek adabiyotining mustaqillik davridagi mundarijasini boyitishga o'z hissasini qo'shib kelyapti. Bunday serqirra shoirlar ijodini mustaqillik yillarida o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik uchun, ayni paytda sho'ro davri adabiyotining ba'zi jihatlarini to'laroq tasavvur qilish uchun ham imkon tug'diradi.

I BOB

LIRIK QAHRAMON YARATISHDAGI DASTLABKI URUNISHLARI

Xusniddin Sharipovning birinchi sheʼri Namangan viloyati gazetasida 1948 yilda, respublika matbuotda esa 1950 yilda bosilgan.

“Nihol” toʻplamidan keyin Xusniddinning shoir sifatida tugʻilishini “Quyoshga oshiqman” dostoni bilan bogʻlasak toʻgʻri boʻlar. Chunki ayni shu dostonda H.Sharipovning oʻziga xos shoirona nigohi, voqealikni mustaqil va original idrok etishi, yangicha poetik obrazlar sistemasini yaratish iqtidori birinchi marta roʻyrost koʻringandi. Doston eʼlon qilinishi bilanoq adabiy jamoatchilikning ham, kitobxonlar ommosining ham diqqat-eʼtiborini jalb qildi. Doston haqida koʻplab taqrizlar yozildi. U moʻʼtabar adabiy anjumanlarda tilga tushdi.

Shoir mavzuning gʻoyat murakkabligini yaxshi anglagan holda teran idrok etgan va yuksak badiiy shaklda mujassamlashtirgan. Yuriy Gagarinning parvozi insoniyat tarixida yangi sohifa ochdi: inson asrlar davomida oʻziga sadoqat bilan xizmat qilib kelgan beshigini-ona zaminni tark etib, “koinotning sirli choʻliga kuyovday qadam tashladi”. Bu – insonning ulgʻayganidan, tarixiy kamolotidan dalolat beradi.

Insonning fazoga parvozi zaminga koinot yuksakliklaridan nazar tashlashga, zaminning asriy muommolariga ham, insonning oʻziga ham yangi nuqtai nazardan qarashga undaydi. Bu parvoz inson tafakkurida ham yangi bosqich, endi u yangicha miqyoslar bilan fikrlarshi kerak. Xusniddin Sharipov buni yaxshi tushunadi va dostonda fazoni oʻzlashtirish jarayonida tugʻila boshlagan olamni yangicha idrok etishni, voqealikka yangicha munosabatini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, shoir dostonda zaminda turib, yuksaklikdan zaminga koʻz tashlaydi, zamin muammolarini shu voqeadan tahlil qiladi. Shoir fazogirning parvozini insoniyatning

yangi ufqlar sari intilishi deb talqin qiladi, uning buyuk ijtimoiy mohiyatini ochadi. Inson butun tarixi davomida yuksaklarga intilgan, quyoshga talpingan, koinot jumboqlarini chiqishni orzu qilgan. Biroq uning bu orzulari faqat bizning davrimizda, jamiyatimizda ro'yobga chiqdi.

“Quyoshga oshiqman” dostoni tor ma'nodagi gumanizm g'oyalari bilan sug'orilgan. Uning lirik qahramoni Gagarin parvozi bahona butun insoniyatning taqdiri haqida o'ylaydi.

Bu o'ylar jahonning barcha mehnatkash xalqlariga muhabbat ruhi bilan sug'orilgan. Lirik qahramon mardona kurashib ozodlikka erishgan va yangi hayot qurayotgan Kuba xalqiga birodarlik salomlarini yo'llaydi, mustaqillik va ozodlik yo'lida kurashayotgan Afrika xalqlariga birdamlik tuyg'ularini izhor qiladi. Ayni chog'da u insonning azaliy huquqlarini poymol qilayotgan qora niyatlarini, atom bombasini silkitib, insonga tahdid qilayotgan qonxo'rlarni, “dardni davolash uchun margumush tanlaydigan ko'r tabib” larni ehtiros bilan qoralaydi. Lirik qahramon inson tafakkuriga, uning ezguligiga, qudratiga ishonadi, uning har qanday qora kuchlar ustidan g'alaba qozonishi muqarrar ekanini “qilichdan nozik gulqaychi yasalishini, go'zallik oldida ajal tiz cho'kishi” ni tasdiqlaydi.

Shoir jahon xalqlarining birodarlari va do'stligi ideyasini olg'a surar ekan, bu g'oyalarni yangicha poetik obrazlarda mujassamlantiradi. Shu jihatdan doston syujetiga singdirib yuborilgan okean obrazi muhim ahamiyatga ega. Okean shoir nazarida shu paytga qadar qit'alar orasida ulug' to'siqday yastanib yotgan, “ellarni ellardan ajratib tashlay deb olishgan”. Lekin endi zamon o'zgardi-inson o'z beshigiga fazodan nazar tashlab, uning go'zalligini va ayni chog'da, koinat bo'shliqlarida himoyasiz ekanini ko'rdi. Insonning fazoga parvozi ellarning bir-biriga bog'liqlikligini yanada ayon qilib qo'ydi. Zaminimizning taqdiri, odamlarning ertagi istiqboli jahon xalqlarining ahilligiga, ittifoqiga

bog`liq bo`lib qoldi. Buni yaxshi tushungan shoir o`z qalbidan kechgan hislarni okean obrazida ifodalaydi:

“Quyoshga oshiqman” dostonida dunyoni yangicha idrok etayotgan, yangicha miqyoslarda fikrlayotgan va bezovta qalb bilan insoniyat taqdiri haqida tashvish chekayotgan zamondoshimizning to`laqonli lirik xarakteri yaratildi.

60- yillarning boshida o`zbek she`riyati sahnasiga yana bir baquvvat, iste`dodli, o`ziga xos mustaqil nigohga ega shoir shunday kirib keldi. Xo`sh H.Sharipovni shoir qilib etishtirgan zamin qaysi, uning istedodiga qanot baxsh etgan, omillar qanday, uning she`riyati qaysi buloqlardan suv ichib ulg`aydi? Tabiiyki, Xusniddinning ulg`ayishida eng katta rol o`ynagan birinchi manba-o`zbek adabiyotidir. U mumtoz adabiyotimizning ulug`vor an`analarini chuqur o`rgandi va ulardagi gumanizmni, samimiyatni mahoratni o`ziga singdirdi. Hamza va G`ofur G`ulomlar, Hamid Olimjon va Oybeklar, Shayxzoda va Zulfiyalar, Uyg`un va Mirtemirlar, Shukurullo va Asqad Muxtorlar to`plagan boy ijodiy tajriba shoirning she`riy parvozi uchun baquvvat poydevor bo`lib xizmat qildi. Ayni chog`da, yosh shoir xalq poeziyasining bitmas tuganmas boyliklaridan, sehrli jozibasidan bahramand bo`lishga intildi. Shoir xalq ijodidan o`rganar ekan, uning yuzasida yotgan tashqi jihatlarini emas, ichki ruhini qabul qilishga, uning xalqchilligini, teranligini, donoligini o`z she`riyatiga singdirishga harakat qildi. X.Sharipovning ijodiy ishini jahon adabiyoti tajribasidan tashqarida tasavvur qilib bo`lmaydi.

Xusniddin Sharipov shoirning jamiyatdagi o`rnini juda yuksak deb biladi. Uning she`rlarida shoirning jangchiligi, qayta-qayta ta`kidlanadi. U qalam bilan xalqining baxt-saodati, Vatanining farovonligi, jahon xalqlarining tinchligi uchun kurashuvchi, muxabbat uchun kurashuvchi

yaxshilik, adolat va haqiqat nurlarini taratish uchun kurashuvchi odam deb hisoblash kerak.

“Taras ulkan edi” sheʼrida shoir bilan xalqning birligi haqidagi gʻoya olgʻa suriladi. Shoir oʻz xalqining dilidagini sheʼrga solishi kerak. Xalqning quvonchi ham, dardlari ham shoir satrlarida teran ifodalangandagina sheʼriyat yashashga haqli boʻladi. Buning uchun esa shoir qalbida muqaddas choʻq boʻlishi kerak:

Yuragida choʻgʻi bor boʻlmasa,
Yuragida yigʻi bor boʻlmasa.
Gʻazabining tigʻi bor boʻlmasa,
Shoir sheʼr ham toʻqib berolmasdi.

Sheʼriyatning mohiyatini bu qadar yuqori qoʻyadigan shoir ijodda yuzakilikni, safsatani, quruq bayonchilikni hazm qilolmaydi. Sheʼriyatning qudratli kuchini behuda sarflashga chidab turolmaydi. Uning nazarida quruq nasihatbozlik, “chanqaganda suv ich, boʻlmagin oʻgʻri, bilar pul yoʻqotgan karmon qadrini”, qabilidagi gaplarni qofiyalab, nazm yaratgan shoir shaʼniga yarashmaydi. Haqiqiy shoir chinorning soyasi emas, chinorning oʻzi boʻlishi kerak.

Xusniddin Sharipovning sheʼriyat haqidagi qarashlarini aniqlashda “Afrika hikoyati” degan poetik asari alohida ahamiyatga ega. Unda qadimiy rivoyatlardan biri hikoya qilinadi: qoʻychining shuhratiga havasi kelgan sardor etti torli soz yasaltirib, uni chaladi. Lekin torlar qafasga tushgan qushday titraydi-yu, sayramaydi. Nagohon urush boshlanadi. Dahshatli qirgʻinda sardor birin-ketin etti oʻgʻlidan ajraladi. U egik bosh bilan uyiga qaytadi va peshvoz chiqqan eliga, xotiniga nima deyishini bilmay lol qoladi.

Ne desin?
Nima ham deya olardi?
Nayzani uzatdi,
Qo`lga oldi soz.
Qaytib ich-ichiga sig`mogan dardni
Oqdi etti tordan sirqirab bexos

Mana shu soddagina rivoyat zamiriga san`atning mohiyati haqidagi ulug` haqiqat singdirib yuborilgan.

Shuhrat ishtiyoqidan san`at bunyodga kelmaydi. Haqiqiy san`at ichga sig`may vulqonday qaynaydigan dardlardan, odamning halovatini olib, sira tinch qo`ymaydigan poyonsiz qalb tug`yonidan tug`iladi. Faqat shunday ijodgina boshqalarning qalbiga yo`l topadi va ularni larzaga soladi. Shoir qalbining teranligi, xalq qalbi bilan tutashligigina she`rni san`at darajasiga ko`taradi. Xusniddin Sharipov mana shu tarzda adabiyotimizning g`oyaviylik, xalqchilik, hayotiylik kabi prinsiplarini o`zining e`tiqodiga aylantirdi. Bu esa shoirga sotsialistik voqealikning ko`pgina muhim jihatlarini haqqoniy aks ettirish imkonini berdi.

Xusniddin Sharipov lirikasining hayotiy mazmuni g`oyat boy va rang-barangdir. Unda so`nggi yillarda hayotimizda sodir bo`lgan ulkan tarixiy-ijtimoiy hodisalarning aks-sadosi yaqqol sezilib turadi. Shoir she`riyatining mavzu ufqlari shunchalar kengki, uni bir maxrajga keltirish amrimahol. Shunga qaramay, Xusniddin lirikasiga ixcham ta`rif berish lozim bo`lsa uni "muxabbat lirikasi" deb atash mumkin. Shoir ijodini yaxshi biladigan kitobxonga bunday ta`rif taajjub uyg`otishi mumkin. Hozirgi shoirlar orasida X. Sharipov muxabbat haqida eng kam yozganlardan biri. Muxabbat shoir lirikasini ichdan nurlantirib turadi, unga alohida o`ziga xoslik, takrorlanmas joziba baxsh etadi. Faqat, bu tor ma`nodagi muxabbat emas.

Shoir ikki qalb o'rtasidagi pinhona yoxud oshkora ishqiy muloqotlarnigina muxabbat deb bilmaydi. U muxabbatni keng tushunadi va keng talqin qiladi. Uning she'rlarida har bir satrdan chak – chak tomib turgan muxabbat – ona yurtga, xalqqa mehnat odamlariga, insonga va umuman, hayotga muhabbatdir.

Xusniddin Sharipov lirikasining markaziy figurasini – bosh qahramoni zamondoshimizdir. Shoir uni dil – dilidan sevadi, uning boy ma'naviyat olamini, ajoyib sifatlarini hurmat qiladi, uning fidokorona faoliyatidan, jasoratli mehnatidan, ilhomlanadi va she'rlarida qahramonga iliq munosabatini oshkora ifodalaydi. Shoirning o'zi she'rlaridan birida “baxtli kishilarga boydir bu jahon, men ham baxtlilarni kuylayman ko'proq” degandi. Albatta, hayot g'oyat murakkab ekanini, odamlar ham bir qolipga sig'masligini, ularning xarakteri, yashash tarzi, har xil bo'lishini, taqdirlari bir – biridan keskin farq qilishini shoir yaxshi biladi. U hayotni tugal qurib bitirilgan muxtasam qasr deb, odamlar esa mukammallashishga ehtiyoji qolmagan farishtalar deb hisoblamaydi.

Xusniddin Sharipov iste'dodining o'ziga xosligi shundaki, u hozirgi zamon olamining xarakteri, psixologiyasi g'oyat murakkab ekanini yaxshi bilgan holda, birinchi navbatda, undagi turli tomonlarni, ibratli fazilatlarni kuylashni ko'proq ma'qul ko'radi. Bu mayl shoirning inson tafakkuriga donoligiga ishonchidan, uning qalbida yaxshilik, ezgulik tuyg'ularining hokim ekaniga aminligidan tug'ilgan. Shoir ayniqsa, insondagi ijodkorlikka intilishni ardoqlaydi. Uning talqinida chinakam inson hamisha go'zallik yaratish, hayotni yanada mukammal qilish ishtiyoqi bilan yashaydi. Ijodkorlik, yaratuvchilik ishtiyoqi insonni oddiylikdan ulug'likka ko'taradi, uning hayotiga teran ma'no bag'ishlaydi, uning qalbida insoniy g'urur tuyg'usini tug'diradi. Bu xislatlar, ayniqsa, oddiy mehnatkash kishilarga yorqin namoyon bo'ladi. Davrimizning bosh qahramoni–mehnat kishisining

ma'naviyat olamini tadqiq etish, uning dunyoga munosabatini, borliqni idrok etishini anglashga intilish, unga xos bo'lgan yetakchi fazilatlarini aniqlash, uning qalbida tug'yon urayotgan turfa rang tuyg'ularni ifodalash shoir lirikasining asosiy masalasidir. Shoir she'rlarida zamondoshimiz haqida axborot bermaydi yoxud uning sha'niga siyqasi chiqqan balandparvoz maqtovlar yog'dirmaydi, aksincha har gal u mehnatkash inson sifatlarini bevosita amalda, xarakatda ko'rsatishga uning lirik xarakterini hayotiy detallarda konkret ochishga intiladi. Shoir she'rlaridagi qahramon makondan va zamondan tashqarida turuvchi mavhum inson emas. U o'zining aniq kasb – koriga ega.

Xusniddin Sharipov dastlabki she'rlaridayoq o'z qahramonining ichki dunyosiga dadil kirib borishga intilgan edi. U original poetik detallar va umumlashmalar yordamida qahramon obrazining muhim qirralarini ochadi. Shoir ilk she'rlaridayoq yaxshi odamlarga teran bir ehtirom bilan qalam tebratadi. Shoir talqinida odamning yaxshiligi, birinchi navbatda, uning elu yurt uchun jon kuydirishida, odamlarga g'amxo'rlik qilishida namoyon bo'ladi. Mana shunday odamlarga muhabbat va hurmat, ularni olqishlash, ulug'lash, shu sifatni madh etish Xusniddinning ko'pgina she'rlariga hayotiylik bag'ishlaydi. Shunday she'rlaridan biri "Chinor". Jazirama yoz paytida odamlar uch quchoqqa sig'maydigan chinor soyasidan bahra olishadi. Shoir ham uning soya – salqinlarida huzur qilib dam oladi va chinorni o'tqazgan odam haqida o'ylab ketadi:

Kim ekan chinorni o'tqazgan odam?

Supraday soqolli mo'ysafidmikan?

Dehqon qizimikan yo yigitmikan?

Ehtimol zabardast qaynoq kishidir?

Ehtimol so'zlari qaymoq kishidir?

Yuzi chiroylimi yo hunukmidi?

Ko'zlari qorami yoki ko'rmidi?

Shu savollarning o'zida chinor o'tqazgan noma'lum odamga samimiy ehtirom bor. Shoir uning kimligini bilmaydi, lekin kimligidan qat'iy nazar u odam haqida shoirning fikri qat'iy:

Ekkan kim ekkanin aytolmayman rost

Chinordan kimligin men aylab qiyos

Yaxshi kishiligin bilaman, xolos.

Sodda va jo'ngina aytilgan misralar. Biroq ulardan insonga muhabbat barq urib turibdi. Shoir lirikasining qahramonlari – turli kasb egalardir. Ular neft buloqlarini rom qilayotgan geologlar samoni zabt etayotgan fazogirlar, shaharlar bunyod etayotgan quruvchilar, tabiat qiyofasini o'zgartirayotgan ijodkorlar, xalq mushkulini oson qilish yo'lida mehnat qilayotgan ziyolilar, otalar an'analarini munosib davom ettirayotgan yoshlar. Ularning mehnat faoliyati, ma'naviy dunyosining boyligi shoirga ilhom beradi. Biroq shoir ana shu ko'p sonli qahramonlari ichida ayniqsa, suyib tasvirleydigan odamlar bor, ular ishchilar va dehqonlardir.

Xusniddin Sharipov ishchilar hayotini aks ettiruvchi anchagina she'rlar yaratgan shoir.

Xusniddin Sharipov ko'pgina she'rlarida hozirgi zamon ishchisi erishgan yuksak marralarni mamnuniyat bilan kuylab, uning yorqin obrazini yaratadi, uni davrimizning eng peshqadam odami sifatida tasvirleydi. Xusniddin lirikasida ilhom bilan tasvirleydigan obrazlardan yana biri, yuqorida aytganimizdek, o'zbek paxtakori obrazidir. Shoir paxtakor hayotini, ruhiy dunyosini ich-ichidan yaxshi biladi, uning qalbini teran his qiladi. Shoir dehqon obrazini chizar ekan, uning mehnatsevarligini, fidokorligini, jasoratini ko'rsatib qo'ya qolmaydi, balki uning sotsiolizm sharofati bilan shakllangan va kamol topgan ijtimoiy fazilatlarini birinchi o'ringa qo'yib tasvirleydi. Boshqacha qilib aytganda,

shoir sheʼrlarida, umuman oʻzbek dehqoni emas, ayni bugungi kunlarning vakili harakat qiladi. U yuksak eʼtiqodga ega boʻlgan mehnati bilan vatan qudratiga qudrat qoʻshayotgan, zamonni teran tushunuvchi, maʼnaviy olami keng, ruhi bardam, hayotni sevadigan yangi inson sifatida nomoyon boʻladi. Bu jihatdan, ayniqsa “Dehqon” sheʼri xarakterli.

Shoir koʻp sheʼrlarida oʻzbek dehqonining yangi sifatlarini dehqon psixologiyasiga mos keluvchi tasvirda, bevosita uning turmushidan olingan narsalar asosiga qurilgan poetik obrazlarda ochadi.

Shoir oʻz qahramonlarining kasbi-kori, hayotidagi movqei, konkret biografiyasidan qatʼiy nazar, ularni yaxlit qudratli kuch sifatida birlashtirib turadigan mushtarak sifatlarni badiiy tasvirlashga alohida ahamiyat beradi. Bu mushatarak sifatlarning eng muhimlaridan biri Vatan, ona yurt, tuygʻusidir. Shoirning lirik qahramonlari uchun Vatan dunyodagi eng goʻzal, eng ardoqli, eng muqaddas narsadir. Shoir “Vatan” tushunchasining mohiyatini chuqur ochadigan salmoqli poetik obrazlar topadi.

U ayniqsa, er, tuprov singari juda oddiy, hammamizga tanish tushunchalarga shunday sifatlar beradiki, ular mazmunan teranlashib, “Ona yurt” tushunchasiga teng keluvchi obrazlar darajasiga koʻtariladi. Masalan, “Mirzachoʻl” haqida yozar ekan shoir uning tuprogʻini “shoʻr” deydiganlar bilan munozaraga kirishadi, unga yangi epiteta bagʻishlab “sher tuproq” deb ataydi. Bu sifatda esa mirzachoʻl tuprogʻining saxiyligi ochilishi bilan birga, asriy sahroni gulistonga aylantirgan odamlarga ehtirom va muhabbat ham mavjud:

Agar zamirida zarra qin boʻlsa,
Paxtasi boʻlmasdi bunchalar oppoq.
Tuproq ham odamga oʻxshagan narsa,
Yuzasiga emas, yuragiga boq.

Xusniddin Sharipov sheʼrlarida ona yurt tuprogʻining “yuragiga boqadi” va buning oqibatida tuproqning yangidan-yangi fazilatlarini kashf etadi. Ehtirosli koʻtarinki ohanglarda yozilgan “Toʻproqqaqasida” sheʼri buning yorqin misoli boʻla oladi. Sheʼr boshdan-oyoq ona yurtga farzandlik tuygʻusi bilan, uning bugungi kamolidan iftixor tuygʻusi bilan sugʻorilgan. Lirik qahramon oʻzining butun hayoti, tirikligi, taqdiri ona yurtga, uning tabarruk tuprogʻiga bogʻliq ekanini chuqur his qiladi. U nihol boʻlganida, ona-yer yashil dala boʻlib, uni ulgʻaytgan, u yoʻlga kirganda yer gilam boʻlib uning yoʻllariga yastangan. Shu tuproqda uning baxti yashnagan. Shuning uchun ham lirik qahramon uni onasi bilan teng koʻradi, ardoqlaydi, unga taʼzim qiladi:

Sevib toʻymas dilim bilan,
Chigit ekkan qoʻlim bilan.
Achchiq jangda qonim shimib,
Alvon boʻlgan yoʻlim bilan.

Ishqimni aytaman!

Shoir lirikasida kishilarning yana bir mushtarak sifati-oʻz yurti, oʻz turmush tarzi uchun iftixor tuygʻularini kuylash ham keng oʻrin tutadi. Shoir bu motiv orqali ham kishilarning yangicha maʼnaviy qiyofasini ochishga muvafiq boʻladi.

Husniddin Sharipov zamondashimizning lirik portretini chizadi va bu portretda uning qahramonona biografiyasini ham, bugungi yuksak maʼnaviy kamolini ham ifodalaydi. Muhimi shundaki, shoir sheʼrlarida roʻy-rost koʻrinadigan qahramon quruq gʻoyalarni targʻib qiluvchi emas, balki chinakam jozibaga ega boʻlgan haqiqiy jonli insondir. Shuning uchun ham shoir sheʼrlari taʼsirchan, uning qahramonlari esa kitobxon xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Ma`lumki, hayotiylik adabiyotning shu jumladan, she`riyatning ham eng muhim printsiptir. Hayot adabiyotga oziq beradigan, unga mavzu va obrazlar baxsh etadigan, uni bitmas, tuganmas material bilan ta`milaydigan bosh manbadir. Shunday ekan, adabiyot hamisha hayotga yaqin bo`lishi kerak. Bu formula juda jo`n, juda sodda va tushunarli. Lekin shunga qaramay, uning ham o`ziga xos murakkabliklari bor. Masalan, adabiyotning, she`riyatning hayotga yaqinligi haqida gap ketganda, tabiiy ravishda savol tug`iladi: bu yaqinlikning chegarasi bormi? Gap shundaki, badiiy asar hayotga har qancha yaqinlashmasin, u hech qachon hayotning aynan o`zi yoxud fotonusxasi bo`lolmaydi. Adabiyot bilan hayot o`rtasida muayyan chegara bor, hayot fakti va badiiy fakt hech qachon bir-biriga aynan teng keladigan kategoriyalar bo`lolmaydi. Adabiyotimiz tajribasi shunday dalolat beradiki, yozuvchi yoki shoir shu haqiqatni unutib, hayotiylikni bir tomonlama yohud yuzaki idrok etsa, hayot faktlarining asirligidan qutila olmasa, u muqarrar tarzda ijodiy muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Odatda hayot to`lqini shoir qalbiga to`qnash keladi, ularning bir-biriga urinishidan chaqmoqdek nur hosil bo`ladi. Ana shu nurdan she`riyat tug`iladi. She`riyat tabiatida bir-birini inkor qiluvchi va ayni chog`da bir-biri bilan birga, bir-birini to`ldirib yashovchi ikki ibtido bor. Bularning biri shuki, she`riyat hamisha ikki oyog`i bilan real zaminga, real hayotga tayanib turadi, ikkinchisi shuki real zamin o`zara mustahkam turgan she`riyat hamisha boshi bilan yuksaklarga intiladi. O`z ijodida she`riyat tabiatdagi anashu ikki ibtidoni birlashtirgan shoirgina jiddiy muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin. Ularni birlashtirish yo`llari benihoya ko`p va butunisicha shoirning shaxsiyatiga, talantining mayillariga o`ziga xosligiga bog`liq.

Faktlar asosiga, turmushda kuzatilgan voqealar asosiga qurilgan. Bir vaqtlar atoqli shoir Erkin Vohidov, Husniddin she`rlarining shu hususiyatini

ko`zda tutib shoirni “she`riyatning prozaigi” deb atagan edi. Haqiqatan ham, Husniddin she`rlarida proza asarlariga xos xususiyatlar bor-ulara voqealarni epik tasvirlashga mayl seziladi. Bu o`rinda Husniddin Sharipovning Mayakovskiy an`analariga amal qilishini ta`kidlash lozim. Buyuk shoir bir vaqtlar ajib bir jasorat bilan ko`chalar suronini keng maydonlar guldurosini she`rga olib kirgan edi, an`anaviy rus she`rini jonli so`zlashuv ohanglari bilan boyitgan edi. Husniddin she`rlarida ham ko`p hollarda bevosita jonli hayot ohanglari sezilib turadi. Biroq shunga qaramay, Husniddin she`rlari o`zining lirizimini yo`qotmaydi, nafosatdan mahrum bo`lmaydi. Shoir mahorat bilan epik tasvir qatlamlariga lirizimni singdirib yuboradi. Bu xususiyat uning dastlabki she`rlaridayoq namoyon bo`lgan edi. Masalan “Professor” she`rini eslaylik. Unda o`zi o`qitgan shogirdlarini ko`rib iftixor qiluvchi o`z mehnatidan mamnun umri odamlarga xizmatda o`tgan professorning lirik obrazi chizilgan. U shogirdlarini ko`radi-yu, beliga quvvat yugirganday, kuchiga kuch qo`shilganday his qiladi. Bu kayfiyatni shoir professorning “zo`r chinorning yashil shoxiday yashnab turgan yoshligimsizlar” degan so`zlari orqali ifoda qiladi. Ammo she`rning so`ngidagi yorqin detal` bo`lmaganida, bu so`zlar shunchas so`zligicha qolib ketar, she`rning umumiy ruhi koloriti susayardi. Xullas she`r nafosatdan, poeziyadan mahrum bo`lardi. Shoir topgan detal` ham hayotiy, ham she`rda tasvirlangan vaziyatni juda aniq ochadi.

Professor siladi sochin,

Ildam yurib jo`nadi darsga.

Suyangancha devorga boshin,

Qolib ketdi shu erda xassa.

Yoshlar davrasida, shogirdlar davrasida o`zini yasharib ketganday his qilgani uchun professor xossasini unutadi, egasidan ajralgan hassa esa devorga boshini suyagancha mung`ayib qolib ketadi. Bu detallar oddiy

hayot faktiga o'zgacha tus beradi, uni real zamindan she'riyat yuksakliklariga olib chiqadi. Husniddin Sharipov ko'pgina she'rlarida hayotiylikka boshqacha vositalar yordamida ham erishadi. Bunday hollarda shoir biror hayotiy lavhani, faktni hodisani oladi-da uning poetik tasvirini beradi. Tasvir ko'pincha o'tkir shoirona nigoh bilan ko'rilgan detallarga, nozik did bilan yaratilgan tashbehlarga boy bo'ladi. Lekin shunga qaramay, she'rni o'qish davomida shoir tasvirlayotgan voqea sizga tanishday tuyuladi, uni bir oz boshqacharoq shaklda boshqa shoirlar ijodida ham uchratgandek bo'laverasiz. Faqat she'rning so'ngidagina birdan ahvol o'zgaradi: shunday poetik detal paydo bo'ladiki, u she'rga boshdan-oyoq yangicha tus berib yuboradi. She'r allaqanday ichki nurdan yorishib ketganday bo'ladi va chinakam hayotiylik kasb etadi. Mana, "Dengiz sokin edi" degan she'r. U dengiz sokinligini tasvirlashdan boshlanadi. Shoir original o'xshatishlar va metofoalar yordamida sokin dengiz manzarasini chizadi.

Poetik obrazlar shunday tanlanganki, natijada dengiz manzarasi dehqon ko'zi bilan ko'rilganday tuyuladi.

Dengiz sokin edi. O'xshardi dengiz.

Mola bosilmagan moviy shudgorga.

Muzdek dazmolini asta yurgizib

Tekislab qo'ymoqchi bo'ldi shabboda

Suvning titrab turgan ajinlarini.

Biroq bu holat uzoq davom etmaydi. Shamol ko'tariladi, "yot qo'l tekkanida eti seskangan polvonning asabiy muskullariday yugura boshlaydi, to'lqinlar birdan. Oradan ko'p o'tmay, haqiqiy to's-to'polan boshlanadi, qiyomat bo'ladi. Shamol sharqiraydi, dengiz vag'illaydi. Shoir dengizning bu holatini ham aniq tasvirlaydi"

Bir-birin g'ijimlar el bilan to'lqin,

Biri ko`tarilib erga urilsa,
Sharillab yirtilar birin kuylagi,
Osmon pasayganday tuyuldi menga,
Bulutlar yugurar tinchroq joyizlab
Xilvatga qochishdi chag`alaylar ham.

Mahorat bilan chizilgan jonli manzara, lekin bunga o`xshash manzaralarni boshqa shoirlarda ham uchratganmiz. Ehtimol Husniddin she`rga shu o`rinda nuqta qo`yganida, she`r o`rtacharoq asar bo`lib qolaverardi. Shoir bunday qilmaydi. U yana bir misra bilan she`rni xotimalaydi.

Baliqlarning holi nima kechdiykin? Hozirgina sokin dengizni tomosha qilib turgan, endi shiddamli to`fonni, shamol va to`lqinning beayov jangini ko`rib lol qolgan qahramonning ana shu anoyi, jinday yumor aralashgan savoli unga tabiiylik bag`ishlaydi, qahramonning, olamga munosabatidagi so`z bilan ifodalab bo`lmaydigan nozik jihatlarini ochadi. Ayni choqda, bu hotima oddiy hayot faktiga yangicha ma`no beradi, uni poetik “Ayollar” she`rida ham xuddi shu holni ko`ramiz, she`r boshdan-oyoq ayollar madhiga bag`ishlangan. She`r ayollarsiz dunyo sahroga o`xshashligini hayot so`nib qolishini tasdiqlaydi. Bular to`g`ri gaplar, lkin uncha yangi gaplar emas. Ayollarni bundan ham oshirib ta`riflagan she`rlar ko`p. Biroq Husniddin bu she`rda ham o`zining poetik individualligini namoyish etadi. U she`r so`ngida shunday misralar tizadiki, ular she`r mazmunini yangi o`zanga burib yuboradi.

Ehtimol so`rarsiz: “Erkak chi-erkak?”

Husniddin Sharipov ijodining o`ziga xos tomonlaridan biri shundaki, u butun ijodi davomida unchalik poeziyabop deb hisoblanmagan hayotiy detallarni ham cho`chimay she`rga olib kiraveradi. Ustalik bilan topilgan va asar to`qimasiga singdirib yuborgan konkret detallar hayotiy tafsilotlar

she`rning realistik quvvatini oshiradi, uni ko`z ilg`ama chayir iplar bilan zaminga turmushga bog`laydi.

Natijada quriq ritorikaga ifodalangan. To`g`ri she`r Husniddinning baquvvat asarlari qatoriga kirmaydi. Lekin hayotiy tafsilotlar yordamida shoir hayotiylikka qanday erishishini aniqlash jihatidan diqqatga sozovor. Samoda kumush qushning ajib o`yinini tomosha qilayotgan odamlarni ko`rsatar ekan, shoir ularning holatini shundatasvirlaydi:

Suvga chiqqan ayol unutdi
Qozondagi yog`i- dog`ini.
Notanish qiz qo`limdan tutdi
Adashtirib o`z o`rtog`ini.
Bir mo`ysafid chimchilar soqol.
O`zi sezmay uzar mo`yini.

Bunday tafsilotlar kitobxonni shoir tasvirining chinligiga ishontiradi. Ular o`ylab topilgan emas, balki shoir hayotda o`zi kuzatgan, o`zi ko`rgan tafsilotlardir. “Uchrashuv” she`rida ham she`rning umumiy koloritini yaratishda, unga muayyan kayfiyat baxsh etishda, lirik xarakter qirralarini ochishda hayotiy detallar va tafsilotlar katta rol` o`ynaydi. She`r juda oddiy hayotiy fakt haqida xabar berishdan boshlanadi.

Avtobus kelguncha gaplashib turdik.
Narx-navo, ob-havo bo`ldi tillarda.

Ular maktabdosh do`stlar. Hozir ikkovining yoshi ham bir joyga etib qolgan. Ko`pdan beri uchrashishgan emas. Mana endi tasodifan avtobus bekatida uchrashib qolishgan. Bunday paytlarda odam tabiiy ravishda bolaligini, yoshlikdagi orzularini eslaydi. Ulardan biri o`shanda uchuvchi bo`lishni orzu qilgan. Ikkinchisi ham umrini bekor o`tkazgani yo`q, bir-ikki bekatni piyoda yurishsa, u ham ekkan niholi mevaga kirganini,

yoxud unvoni yuksak bo'lgannini gapirib beradi. Lekin ular avtobus kutishyapti ikkovi ham shoshibroq turipdi. Shoir maktabdosh do'stining "chap-miyig'idagi tishini pirpiratib" so'zlashini, jilmayib avtobuslarning betartibligini koyishini aytadi. Nihoyat she'r so'ngida yana jonli hayotiy detallar yordamida voqeaga xotima yasaydi:

Lekin to'xtatmadim yo'lidan uni
Emasman juda ham betamiz banda.
Gap sig'maydi, axir birov, qizini
Bog'chadan olishga shoshib turganda.

Mana shu quvnoqlik, samimiyat, dilidagini tiliga chiqarish san'ati tufayli she'rda tasvirlangan o'ta oddiy bir hodisa allaqanday ichki jilolari bilan tovlana boshlydi va kitobxonda muayyan kayfiyat uyg'otadi. Hayotiy detallar she'rning realistik kuchini nechog'lik oshirishini "Sayrdagi o'ylar" she'rida ham yaqqol ko'rish mumkin. She'rning mazmuni falsafiy xarakterga ega. Unda hozirgi odamlarning dunyoni idrok etishi, yangicha sezgilari olamni o'zgacha tuyishi ifodalangan. Lirik qahramon oydinga sayr qiladi. Bir vaqtlar oyga romantik munosabatda bo'lgan u yorini oyga qiyoslagan. Unga aytadigan gaplarini oyga aytib pishitgan. Endi esa ulg'aydi, oyning ko'p sirlarini bilib oldi. Endi u oyning ranggi qo'ng'irligidan, unda giyoq bitmasligidan, o'zi ziyo sochmasligidan yaxshi xabardor. Xullas endi qahramonning oyga ham, quyoshga ham umuman tabiatga munosabati romantik liboslardan holi. Qahramon kitobiy emas, zamin kishisi. Uning olamni tuyishi ham real odamnikiga monand. Shoir ayrim detallar yordamida qahramonning jonli odam ekanini zamin kishisi ekanini yanada ta'kidlab ko'rsatadi:

Tekin nurin sohib boradi oy
Yonginamda kuchugim yugirar

O`qtin-o`qtin oyga qarab hurar

Obbo, endi qilganimda mazza

Ne bo`lardi sukunatni buzmasa.

Bu detal` she`rni jonlantirib yuboradi, qahramonga insoniy joziba baxsh etadi va uning olam sirlarini kashf etgani srai jahon ko`ziga go`zalroq ko`rinayotgani haqidagi gapiga ishonamiz.

H.Sharipov tabiat hodisalarini, undagi turli tuman narsalar va buyumlarni jonlantirish orqali, ularga insoniy sifatlarni yuklash orqali “Bahor ketguncha” she`rida bahor obrazi to`la-to`kis jonli odam belgilari orqali nomoyon bo`ladi. Muhimi shundaki, shoir bahorga ham dehqon nigohi bilan qaraydi va unga bergan sifatlarida bahorning tinib-tinchimasligini, mehnatkashligini, odamlarga qayishishini ta`kidlaydi. Shoir tasvirlagan bahorning oyog`ida kirza etik, sochi turmaklangan, durrasi tang`ilgan, elkasida sodda yomg`irpo`sh. U iudrok dalalarga nazar soladi, yumshoq shudgar uzra yuradi, urug` saralayotgan cholga qarashadi, chelaklab kerosin tashishadi, traktor tiyg`ansa elka tirashvoradi, dalada tunaydi, uning tumov bo`lishiga ham vaqti yo`q. U tuproqni etiltiradi, olma behilarga rang ulashadi. Hovozlar chetiga ko`k ko`rpacha yozida, bog`i polizlarda tartib o`rnatadi. Ko`ramizki bahor bahor emas, ayni dehqonning o`zi. Shu tarzda jonlantirib tasvirlangan bahor kitobxon nazarida faqat go`zalligi bilan emas, mehnatkashligi bilan ham gavdalanadi. Bu o`rinda hayotiylik hodisani, aniqrog`i yil faslini qabariq tasvirlashga imkon bergan. Shunday qilib ko`ramizki, Husniddin Sharipov lirikasida turli shakllarda nomoyon bo`luvchi hayotiylik uning she`rlariga o`ziga xos jozibadorlik baxsh etadi. Natijada konkret hayot hodisalari haqidagi hikoya qiluvchi asarlar shunchaki qofiyalangan axborot darajasida qolib ketmay, chinakam poeziya namunalariga aylanadi va kitobxonga olam-jahon

estetik zavq bag`ishlaydi. Husniddin Sharipov lirikasining badiiyligini belgilaydigan muhim omillardan yana biri yumordir.

Yumor ham H. Sharipov ijodida turlicha ko`rinishlarda nomoyon bo`ladi. Ayrim she`rlarida shoir yumordan voqeani yoxud xarakterni jonlantirishga yordam beruvchi adabiy priyom sifatida foydalanadi, ba`zi she`rlarda esa yumor shoirning voqealikka munosabatidagi muhim jihatlarni ochib beruvchi vosita sifatida ko`rinadi. Masalan ijodning ilk bosqichida yozilgan “Lo`lilar” she`rida shoir yumordan foydalanib she`rni jonlantiradi, uni jozibador qiladi, syujetda kutilmagan burilashlar yasaydi. Bunday hollarda yumor shoirga tavsifiylikdan qochishga yordam beradi. She`rda lo`lilarning yangicha turmushi, Yozyovon cho`llarini o`zlashtirishda ishtirok etayotgani, folbinlik bilan tirikchilik qiluvchi lo`lilar o`rnini paxtazordagi mehnati bilan iftixor qiluvchi lo`lilar egallagani aytiladi. Shoir lo`li qizning jozibali portretini ham chizadi. Nihoyat she`rining so`ngidagi engil hazil butun asarga yangicha ruh ato qiladi.

Tikilmagan dala tarafga
Yuzlab savol tilimda titrar
Qizni uzoq tutmadim gapga
Rashkchi bo`lar lo`li yigitlar.

Shoir qator she`rlarida jiddiy hatto dramatik voqealarni qalamga oladi, biroq ularni yumorga yo`g`irib tasvirlaydi. Buning oqibatida lirik qahramon xarakteri teranroq ochiladi. “Arabakash arzi” degan she`rida kolxoz aravakashining Nazira degan qizga muhabbati haqida gap boradi. Nazira uni xush ko`rmaydi shekilli, hargal aravakash yonidan beparvo o`tib ketaveradi. Bu yigitni iztirobga soladi, u “davlati kamayib qolmasdi sira, bir salom desa, yo tashlasa nigoh” deya taasufklar chekadi. She`r

davvomida kamtar aravakashning elu yurt xizmatida bo`lib, odamlarning og`irini engil qilayotgani, sofdilligi, halolligi ochiladi. Yigit o`z kasbidan mamnun, lekin qiz xoxlasa boshqacha ulug`varroq ishlarni ham qila oladi.

Aravakash yigit yoqmasa senga,
Uchuvchi bo`lish ham kelar qo`limdan.

“Ogoh bo`ling” she`ri ham muxabbat mavzusida. Unda ham oshiq yigit sevgan qiziga dil rozini aytadi, uni madh etadi. Uning ham ko`nglida sevgi dardi tug`yon urushini istaydi. Bu she`rda ham yumor bilan sug`orilgan tugallanma she`rning avvalgi bandlarini nurlantirib yuboradi, ulardagi tuyg`ularni qalbimizga yaqinroq qiladi:

Ogoh bo`ling endi yor
Kutmasangiz intizor
Aylagayman biror kun
Otangizga shikoyat.

Shunisi muhimki, Husniddin she`rlarida yumor faqat ahyon-ahyonda bir ko`rinadigan yetkinchi narsa emas, balki muhim xususiyatdir. Shoir so`ngi yillarda yozgan she`rlarida ham yumordan mohirona foydalanadi. Masalan, “Armon” she`rida “qishloqdagi bir nozoninning” go`zalligini, latofatini jo`shib kuylaydi, lekin she`r oxirida ma`lum bo`ldik, bu nozaninga hech qachon lirik qahramonning qo`li etmas ekan: shoir kuylagan nozanin:

Toza guldek undi o`sdi.
Yo`q edi hech kami-ko`sdi.
Faqat bitta aybi ham bor
U birovning yori edi.

Shoir bir qator sheʼrlarini boshdanoyoq hlv, yumor asosiga qurgan. Bular koʻproq aruzda yozilgan sheʼrlardir. Shoir mayin bir lutf bilan, baʼzan nozik qochiriklar va kinoyalar bilan boshidan kechgan sarguzashtlar haqida hikoya qiladi. Hatto baʼzi sheʼrlarda tasvirlangan odamlar xarakterida muayyan salbiy xislatlar boʻrtib tursada, biz bunday sheʼrlarni tanqidiy yoʻnalishdagi asar sifatida qabul qilmaymiz. Shoir ularda hayotni quvnoqlik bilan idrok etishda davom etadi. Masalan “Osh ustida” deb nomlangan gʻazal shunday. Shoir choyxonaga choy ichgani kiradi-yu osh xoʻrlik qilib oʻtirishgan joʻralariga duch keladi. Ularning birontasi lagandan bosh koʻtarib, shoirni davraga taklif qilmaydi. Faqat lagan boʻshagandan keyingina ular shoirni koʻrib, unga taʼna qila boshlaydi:

Osh tugab, gʻilt-gʻilt yutilgach silqigan moy choy bilan.

Bitta oshnam menga boqdi: - Sal yaqin kelsang-chi hoy

Artdi barmogʻin gazetaga. Shu gazeta shu sahar

Sheʼrlarimni bosganin u bilmagandir hoynahoy

Oshnalar sakrab turar oʻz oʻrnidan kuchmoq uchun

Baʼzilar oʻlmoqchi oʻylar koʻrmagandek olti oy

Bir ogʻaynim qoʻl qoʻyar elkamga soʻng der lab yalab.

Voy ajab sevmas ekan-ku, qaynonangiz Husnivoy.

Shu tarzda shoir sheʼrlarida yumor ham turli shakllarda namoyon boʻlib, asarning hayotiyiligini kuchaytirishga taʼsir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Ayni choqda yumor shoir lirikasining xalqchilligini taʼminlaydi, unga oʻziga xos milliy kolorit baxsh etadi. Shoir ijodidagi yumor muayyan evolyutsiyani boshidan kechirgan-agar Husniddin ijodining ilk bosqichlarida yumor, asosan, badiiy priyom sifatida qoʻllangan boʻlsa, bora-bora uning funksiyasi oʻzgardi. Shoirning keyingi ijodida va ayniqsa, soʻnggi yillarda yaratgan asarlarida yumor shoir dunyoqarashining ham hayotga munosabatining ham tarkibiy qismiga aylanib ketgan. Shoir

ijodidagi yumorning manbalari ham diqqatga sozavor-yumor shoirning o'z qahramonlariga muhabbatidan, ularga yaqinligidan, ular bilan hazil-mutoyiba qilishga haddi siqqanidan tug'ilgan. Shoir qahramonlarining kuchiga qudratiga astoyidil ishonadi va shuning uchun ham ularning fe'l-atvoridagi, xatta- harakatidagi ayrim qusurlarni yohud kamchiliklarni keskin savalamaydi, balki o'tkinchi narsalar haqida gapirayotganday miyig'ida kulib ishoralar bilan ko'rsatib qo'ya qoladi. Husniddin lirikasidagi yumor shoirning hayotga shaydolidan, istiqbolga ishonchidan ham tug'iladi va shoir she'rlaridagi tor ma'nodagi optimizmni ifodalashga yordam beradi. Husniddin poeziyasi hayotga yaqin bo'lsa-da, shoir kundalik hayot ohanglarini, maishiy turmush detallarini she'rga ko'plab olib kirib, atayin epiklikka intilsada bularning hech qaysisi uning asarlaridagi lirizimni susaytirgan emas. Shoir she'rlaridagi lirizm tog'u-toshlarni, yaproq va barglarni tong va shafaqlarni, irmog'u shalolarni tasvirlash hisobiga yuzaga kelmaydi. Zotan bu predmetlar o'z-o'zicha hech qachon lirikani vujudga keltirmaydi. Albatta poeziyada hamma narsa, shu jumladan, yuqorida sanalgan narsalar ham tasvir ob'ektiga munosabati aniq ifodalangandagina, shoirning his-tuyg'ulari, fikrlari mavjud bo'lgandagina bu predmetlar muhim rol o'ynashi lirikaning H.Sharipov she'rlaridagi lirizm shoirning samimiyligidan, qalbining boyligidan, atrofini o'rab olgan hayotga o'z ko'zi bilan qaray olganidan, serzavq va serhayajonligidan tug'ilgan. Lirizmdir. Shoir nima to'g'risida kuylamasin. Unga munosabatini yorqin ifodalaydi va bu munosabat samimiyligi, kutilmaganligi va yangichaligi bilan bizni maftun etadi. Husniddin Sharipov lirikasining o'ziga xosligigini, ta'sirchanligini belgilovchi muhim omillardan yana biri uning shoirona nigohining o'ziga xosligida, olamni original poetik obrazlar orqali idrok etishadi. Shoir tabiatan odamlarni, voqealarni boshqa hech qaysi shoirnikiga o'xshamagan ko'z bilan ko'radi. Bu juda muhim, chunki

shoirning shoirligi, individual manerasi, o`ziga xosligi uning obrazli tafakkurida ko`rinadi. Shoir har bir she`rida original tashbehlar metofoforalar, aniq va ixcham epitetlar yaaratadiki, bular she`rga betakror badiiy kolorit bag`ishlaydi, uning emotsionalligini oshiradi, rassom polotnosidagidek jonli va rangdor gavdalantirishga yordam beradi.

Shoir she`rlarida ohang nihoyatda boy lozim bo`lganda u hazil va mungli kuylarni eslatuvchi ohang topadi, keragida xalq qo`shiqlariga yaqin o`ynoqi, engil ohanglarga murojaat qiladi. Uning she`rlarida deklamatsion ohanglar ham, ko`tarinki tantanavor sadolar ham jiddiy va bosiq ohanglar mavjud. Lozim bo`lganda esa shoir jonli so`zlashuv tilining tovlanishlarini ham she`rga singdirib yuboraveradi. Bu hol ayniqsa, lirik personajlarga nutqiy xarakteristika berishda ko`p uchraydi. Mana bir misol.

Kampirlarning dimog`i chog`-to`y avjida

Hech kim boqmas tonggi shabnam tushganiga.

- Nonga qarang, qanddanoling, oling quda

- Qarib qolibman, qand egani tish qani-ya

Bunday misollar shoirning tasvir san`ati yuksak ekanidan dalolat beradi. Husniddin Sharipov zamondoshimiz obrazini lirik she`rda yaratish bilan cheklanmaydi. Shoir buning turli imkoniyatlarini qidirib, yangi shakllarga doston janriga murojaat qiladi. Lirika bobida orttirilgan boy tajriba dostonday murakkab janrda ham shoirga muvaffaqiyatli qalam tebratishga imkon bergan.

II BOB

SHOIR DOSTONLARIDA LIRIK OBRAZNING BADIY TALQINI

Husniddin Sharipovning doston janridagi ilk izlanishlarining samarasi ularoq “Birinchii dovon” dostoni tug`iladi. Doston hozirgi yoshlar haqida. Ularning, mehnatda toblanishi, muhabbati, hayotdagi ilk qadamlari shoirning diqqat markazida turadi. Dostonda bosh qahramonlar Bahodir va Aziza siymosida sovet yoshlarining muhim sifatleri umumlashtirilgan. Bahodir maktabni tugatgach Chotqolga borib, yo`l qurilshida ishlaydi. Badahshondan kelib, portlovchi bo`lib mehnat qilayotgan Aziza bilan tanishadi. Qiz va yigit bir-birlarini sevib qoladilar. Ularning muhabbati hayotning ilk sinovlarida toblanadi. Doston so`ngida bu yoshlarning sifatini umumlashtiruvchi shunday satrlar bor:

Duch kelsa tog` tilka etamiz,
Daryolardan emaymiz hech g`am,
Vulqonlardan sakrab o`tamiz,
Cho`chimaymiz qo`pqonlardan ham.

Bu satrlar okora romantik bo`yoqlarga yo`g`rilgan bo`lsa-da, ularda fikr bir oz quruq ifodalangan bo`lsada kitobxon yoshlarning orzusini shunchaki chiroyli gap sifatida qabul qilmaydi. Bu satrlarda ikki yoshning ongli ravishda tanlab olgan hayot yo`li, yashash prinsipi ifodalangan. Dostonda Chotqol tabiatining so`lim manzaralari chiroyli tasvirlangan. Shoir mehnat jarayonini ham aniq ko`rsatadi- biz portlashlar gumburini, quhruqchilar bolg`alarining gursillashini eshitayotganday, ularning manglayidan oqqon ter donalarini yaqqol ko`rayotganday, qurilishda hukmron ruhni his qilayotganday bo`lamiz. Bularning bari muhim, albatta. Lekin shunisi ham borki, ikki yoshning hayot yo`lini aniq ko`rsatgan bilan, ularning mehnatini ishonarli tasvirlagan bilan hali doston vujudga

kelavermaydi. Boshqacha aytganda, asarga asos qilib olingan hayotiy faktlarga tayanib turib, she`riyat yuksakliklariga ko`tarila olmasa, uning dostoni teran hayotiylik ham kasb etmaydi., salmoqli badiiy qudratga ham ega bo`lmaydi.

Dostonda e`tiqodning tug`ilishi, murakkab hayot yo`llarida mustaqil odimlay bilish ma`naviy ulg`ayishining birlamchi zaruriy sharti tarzida ko`rsatilgan. Mana shu talqin yoxud g`oyaviy konsepsiya dostoni anchagina fazilatlariga ega.

H.Sharipov ikkinchi poemasini e`lon qildiki, “Quyoshga oshiqman” deb atalgan bu asarning adabiyotimizda katta voqea bo`lganni ishimizning birinchi bobida aytgan edik. Shundan keyin shoir tez-tez poema janriga murojaat qila boshladi va zomondoshlarimiz haqida ularning ma`naviy olami haqida anchagina asarlar yaratdi. Bular-biri ko`proq, biri kamroq darajada davrimizning muhim muommalaridan bahs yuritgani, zamondoshimiz xarakterining turli qirralarini jilolantirgani uchun kitobxonga manzur bo`ldi. Shunday dostonlardan biri “Bog` ko`cha bolalari” dir. Zamondoshimizga bag`ishlangan bu dostonda inson hayotining murakabliklari haqida, ularni enguvchi bardosh va iroda to`g`risida, vafo va sadoqat, muhabbatning qudratli hayotbaxsh kuchi to`g`risida hikoya qilinadi. Doston qahramonlari-hayotda ko`pni ko`rgan, urushda ishtirok etgan, turmush achchiq-chuchuklarini obdon sinagan Asqar va endigina mustaqil hayotga qadam qo`ygan Dildora. Ularning yoshida katta tafovut bo`lsada mushtarak tomonlari ham bor, ularning ikkovi ham dehqon, ikkova ham mehnatkash, ikkovi ham “tap-taqir dalani ko`rsa o`tib ketalmaydi ko`z yumib”, ikkovi ham qadami etgan joyni obod qiladi, bog`-rog`lar yaratib, jannatga aylantiradi. Ayni ana shu yaratuvchilik hislati bir-biriga o`xshamagan bu ikki odamni o`zaro yaqinlashtiradi.

Umuman, shoir ijodkorlikni, yaratuvchilikni zamon kishisining eng muhim hislati deb biladi va asarlarida bu hislatni ancha keng tadqiq qiladi. Yaratuvchilik ijodkorlik faqat Asqar va Dildoragagina xos boʻlgan favqulotda hislat emas, balki koʻplab oddiy mehnatkash odamlarning ham tabiatiga singib ketgan fazilat ekani “Terakmozor” degan dashtni oʻzlashtirishga kelgan dehqonlar haqida aytilgan gaplarda yaxshi ochilgan:

Lekin bugun kelgan dehqonlar,
Obod qilmay qaytmaydi, chogʻi,
Oʻzini ham sezmas mehmonday,
Omonatmas hatto oʻchogʻi.

Oʻzini oʻz erida mehmon emas, xoʻjayin deb his qilish, shu tufyli xamisha ona yurtini obod qilishga intilish, goʻzallik yaratish ishtiyoqi sovet kishisining etakchi fazilati ekanini shoir yaxshi payqagan. Bu fazilat bizning odamlarimizga ota meros Dildor-asli yozyovonlik. Yozyovonda uning bobosi tabiat hujumlariga dosh berib qiynalib yashagan, lekin shunga qaramay bogʻ yaratgan, ekin ekkan. U farzandlariga ham sahroga taʼzim qilmay yashashni vasiyat qilgan. Shundan beri uning oʻgʻli ham nevarasi Dildor ham, qoʻriq ochib, koʻchat ekib yashaydi. Asqar ham yoshligidan suyagi mehnatda qotgan. Biroq yoʻldan bir tekisda sirgʻalib boravermaydi. Hayotning gʻalati injiqliklari boʻladi. Hayot Asqarning ham mardligini bardoshini sinamoqchi boʻlganday, uni mushkil sinovlarga duch keltiradi. Asqar yoshligida Bahrini sevgan, ular necha martalab visol oqshomlarini birga oʻtkazishgan, sadoqat haqida ahdu paymonlar qilishgan. Biroq asqar frontga etgach, Bahri kutishga sabri chidamaymi yo boshqa sababdanmi turmushga chiqib ketadi. Frontdan qaytgach Asqar bunday vafosizlikdan qattiq iztirobga tushadi va bahriga saboq bermoqchi boʻladi:

Chin muhabbat qanday boʻlmogʻin,

Ko`rib qo`ygin bevofo barno
Pinhon tutib ilk sevgi dog`in
O`tajakman dunyodan tanho.

Shunday qilib, Husniddin Sharipov “Bog` ko`cha bolalari” dostonida hayot faktlarini shunchaki bayon qilib qo`yyaqolmasdan, ularning mohiyatiga kirib borishda va zamondoshimiz xarakterini chuqurroq ochishda yangi marralarni egallaydi. “Tanovar” dostonida zamondoshimiz xarakteri boshqacharoq tarzda ochiladi. Bu gal shoir o`zbek ayolining umumlashgan poetik biografiyasini yaratishni va shu asnoda uning xarakteridagi eng muhim jihatlarni badiiy gavdalantirishni maqsad qilib olgan. Doston syudjeti murakkab emas, to`qqiz farzandni o`stirib voyaga etkazgan Shamsibi Qarshi cho`llarida mehnat qilayotgan o`g`li Abrorning huzuriga otlangan, qo`shni ayollar yig`ilib, o`yin-kulgi qilib, Shamsibini, kuzatayapti. Udar Shamsibini o`yinga tortishadi-Shamsibi “Tanobar” ga o`ynar ekan, shoir lirik chekinish qilib, o`z qahramonining hayot yo`lini gapirib beradi. Yuir qarashda Shamsibining hayot yo`li benihol oddiy-unda biron-bir favqulodda xodisa yo`q. Lekin Shamsibining hayot yo`li ayni shu oddiyligi bilan yuz minglab o`zbek ayollarining biografiyasiga ulanib ketadi. Bu esa obrazga insoniy joziba baxsh etadi. Bir vaqtlar qora sochi taqimiga tushgan, peshinda yuvib-tarashga o`tirsa, kechqurun qo`li bo`shamaydigan go`zal Shamsibi uloqda sovrin olgan abjir chavondoz Muxtorni sevib qoladi. Biroq qiz bola qanday qilib sevgisini oshkora eta oladi? Shoir qizning holatini, pinhona tuyg`ularini chuchmallikka berilmay, lo`nda va aniq tasvirlaydi:

O`xshar qiz sevgisi dorisiz dardga.
Sevganin qo`lidan shartta tutalmos.
Yorning ko`chasidan tunda guzarga.
Ishqiy ashula ham aytib o`talmos.

Shamsibining orzusi ushaladi, sevgi muammosi to'y bilan hal bo'ladi. Shamsixon va Muxtarjon shirin turmush kechira boshlashadi. Muxtor kanal qurulishida mehnat qiladi. Ular to'rt farzand ko'rishadi. So'ngra urush boshlanadi. Muxtorjon, Vatan himoyasiga jo'naydi. Shamsibi uchun yo'qchilik ayriliq sog'inch kunlari keladi. Ana shunda Shamsibi uchun haqiqiy kunlari keladi. Ana shunda Shamsibi uchun haqiqiy sinov boshlanadi. U endi urushga ketgan eri o'rnida mehnat qilishi, to'rtta farzandini o'ylashi, havli-joyiga qarashi qahatchilik azobini tortishi kerak. Shoir uning bir kunlik hayotini butun tafsilot bilan ko'rsatadi: Ufqqlar nurga burkanmasdan Shamsi chap qo'lida kenjasini ko'tarib, o'ng qo'lida oq echkisini etaklab dalaga yo'l oladi. "Oftob g'arb ufqiga yoyganda bezak" Shamsi echkisiga bir bog'lam pechak ortib, kenjasini ko'tarib uyga qaytadi. Ammo Shamsi uyda ham tinmaydi-o'choqda qumg'on qaynaguncha, hovliga suv sepib, supuradi, keyin echkini sog'adi, bolalarini yotqizadi, ular uxlagach, tog'orada xamir qoradi uni ko'pchishga qo'yib, duvaraklarining ust-boshini o'ylab, qo'lga igna-ip oladi. Shamsining hayoti shu ahvolda-daladan hovliga, uydan dalaga qatnash bilan so'ngsiz-odoqsiz mehnat ichida o'tadi. Bu manzara bir kun emas, bir hafta emas, bir oy emas, yillar moboynida davom etadi. Bu uqubatga dosh berish uchun, umidsizlik iskanjasida qovrilib, hayotdan qo'l yuvmaslik uchun qanchalar iroda, qanchalar bardosh kerak, eng muhumi esa ertanggi kunga, istiqbolga, visol onlariga nechog'lik teran ishonch lozim! Shamsibi mehnat azobini ko'r-ko'rona tortuvchi, har narsaga ko'nikib ketaveradigan, mute' odam emas. U o'z holatini o'ylaydi, tahlil qiladi, o'ziga -o'zi savollar beradi:

Umrinni ne qildim, kim bo'ldim o'zim

Nahotki aylandim qo'shchi xo'qizga

Hayot o'zi shumi, ko'rmi yo ko'zim.

Yo qalbim loqaydmi jilvaga, hisga!

Yo`q Shamsibi bir lahza ham o`zini “qo`shchi xo`kiz

Deb his qilmaydi, aksincha u insonday yashashni, “oftobning zarralarini sipqorib” yashashni istaydi. Shoir o`z qahramonini faqat ulug` mehnati, buyuk bardoshi uchungina maqtamaydi-uni shoir uchun eng ardoqli, eng aziz, eng go`zal siymoga aylantirgan yana bir sifati bor-u o`zining minnatsiz mehnati bilan, qalbining pokligi bilan atrofiga mehr nurini taratib, yaxshilik va ezgulik urug`ini sohib yashaydi: uning qalbi:

Bir qalbki qalb emas-lag`cha mehr u.

Nurin sogaverar minnat qilmasdan.

Qancha-qancha ko`zga yog`du va orzu

Payvand etganini o`zi bilmasdan.

Shamsibi ana shunday qudratga ega! Xo`sh bu qudratning ildizi qaerda? U nimadan kuch oladi? Dostonning asosiy g`oyaviy konseptsiyasida bu savolga javob beriladi: shoir bu gal ham sovet kishisining ijodkorligini, yaratuvchiligini uning yuksak ma`naviyatini ta`minlaydigan asosiy manba sifatida tasvirlaydi:

Odamzod yaproqday qolardi so`liv

Bo`lmasdi insondan arzonroq narsa

Faqat o`lim bilan ovora bo`lib

Yashash-yaratishki yoddan chiqarsa.

Etibor bering-shoir “yashash” va “yaratish” degan tushunchlarni bir-biriga teng tushunchalar tarzida qo`llayapti va umuman inson hayotining mohiyatini yaratishdan, ijod qilishdan iborat deb tasdiqlayapti. “Yaratish” deganda esa shoir “pay bilan tuproqning to`qinishni, ter emib etilgan nonga sadoqatini, miyaning musht bo`lib tugulishini” tushunadi. Dostonda uning hamma parchalarini bir-biriga birlashtirib turadigan va asarning boshidan oxirigacha amal qiladigan bir poetik obraz bor. Bu qo`shiq obrazi,

“Tanovar” obrazidir. Bu obraz doston lirikmini chuqurlashtiradigan va shoirning asosiy gʻoyaviy-falsafiy qarashini ochishga xizmat qiladi. Qoʻshiq insonga, uning hayotiga hiss qilinadi. Shoir bu qiyosdan muhim xulosalar chiqaradi: Nima uchun “Tanovar” asrlar moboynida yashab kelmoqda? Nima uchun odamlar hamon shu kuyga shaydo? “Tanovar” da necha asrlardan beri xalq dilidan kechgan dardlar mujassam boʻlgani uchunmi? Shoir bunday talqinga qoʻshilmaydi, uning talqinida gap faqat darddaemas, aks holda odamlar bu kuyni shunchalar orziqib kutmas edi. Shoir talqinida bu kuyning qay bir pardasida eng shaffof tuygʻu-hayotga muhabbat tuygʻusi yashamaganda u bunchalar qadr topalmasdi. Bu fikrlardan shoir katta umumlashtiruvchi xulosa chiqardi:

Hayotga muhabbat!

Shu oliy hisni

Tuyub turmaganda tirik jon har dam

Umidsizlik engib irodamizni.

Yoʻq boʻlib ketardi qoʻshiq ham xalq ham.

Shamsibiga buyuk vudrat bagʻishlagan, hayot yoʻllarida uni aql bovar qilmaydigan mushkulotlardan eson-omon olib oʻtgan qudrat ham ana shu oliy his-hayotga muhabbat tuygʻusidir. Xuddi shu narsa obrazga chuqur xalqchilik baxsh etadi, uni oʻzbek ayollarining tipik vakili darajasiga koʻtaradi. Ana shu falsafiy terak talqin tufayli Shamsibi xarakterida zomondoshlarimizning muhim sifatlarida umumlashgan. Husniddin Sharipov “Yashamoq kerak” va “Insof diyori” degan dostonlarida ham liro-epik planda kishilarning jozibador xarakterlarini yaratdi, davrning muhim tomonlarini, badiiy tadqiq qildi va yuksak badiiy shaklda salmoqli gʻoyalarni olgʻa surdi. Bu dostonlar ham oʻz vaqtida jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi va hozirgi dostonchiligimiz rivojiga muayyan

hissa qo'shdi: Husniddin Sharipov dostonlarida zamon va inson mavzuining ishlanishi haqida gap ketganda shoirning hajman kichkina, lekin mazmunan ancha teran "Tabarruk meros" dostonini tilga olmay bo'lmaydi. "Tabarruk meros" janr xususiyatlariga ko'ra Husniddig shoirning boshqa dostonlaridan ajralib turadi. Bu doston mohiyat e'tibori bilan lirik doston bo'lib, qahramonning monologiya shaklida yozilgan. Lirik qahramon Sergey Korolevning zamondoshi, Yuriy Gagaringa tengdo. U urush ko'rmagan avlodning vakili. Bu avlod XX asr o'rtalarida ulg'ayib balog'atga etdi. Bugun u tarix otining jilovini qo'llarida mahkam tutib turipdi. Shoir lirik qahramon biografiyasini tasvirlamaydi, uning xarakterini batafsilroq ochishni maqsad qilib qo'ymaydi, balki dostonning boshidan oxirigacha uning o'ylarini beradi. Bu yillar g'oyat bezovta, kishiga orom bermaydigan, uni harakatga undaydigan o'ylardir, chunki ular insoniyat va uning taqdiri, fazo va zamin, haqidagi o'ylardir. Ayni choqda ular mavhum o'ylar emas, balki qalbi gumanistik tuyg'ularga to'lib toshgan, internotsionalizmni o'zining e'tiqodi deb bilgan, zamon har qancha murakkab bo'lmasin, insoniyat taqdiri har qancha qil ustida turgan bo'lmasin, inson tafakkurining qudratiga ishonch bilan qoraydigan sovet kishisining o'ylaridir. Lirik qahramon o'zini insoniyat taqdiri uchun, ona zaminning istiqboli uchun javobgar deb biladi. Dostonda XX asr odamining qalbida shakllanayotgan jamiki xalqlarning taqdiri mushtarak ekanini anglashdan tug'ilayotgan tuyg'u yaxshi ifodalangan:

Bir qo'ldan hech qachon chiqmaganday qars,

Milliard qo'l quchmasa zamin ketgan darz.

Bu misralarda bugungi tarixning eng muhim haqiqati mujassam. Lirik qahramon yashilikka burkangan zaminimizni, yashash ishtiyoqini, go'zalliklar va yaxshiliklar qatorini ko'paytirib, ijod qilib, yaratib yashash ishtiyoqini bobolardan hozirgi avlodga o'tgan tabarruk meros deb biladi

va shu merosni boyitib, unga munosib bo'lishi uchun faol bo'lishga undaydi. Ana shu teran va bezovta o'ylarda bugungi avlodning ma'naviy dunyosi, kayfiyati yaxshi ochilgan. Husniddin Sharipovning zamondoshimiz xarakterini yaratishga bag'ishlangan yana bir asari "Sotivoldidan salom" dostonidir. Bu asar shoirlar va munoqqidlar tomonidan yuksak baholanganini yuqorida aytib edik. Haqiqatan ham "Sotivoldidan salom" g'oyaviy-badiiy jihatdan etuk asar bo'lib, o'zbek adabiyotidagi qahramonlar galeriyasini qabariq xarakterga ega bo'lgan yana bir o'ziga xos qahramon bilan boyitdi. Sotvoldida hozirgi o'zbek dehonining tipik hususiyatlari tajassum topgan.

Sotvoldi o'z hayotidan, o'z mehnatidan mamnun. Shu mamnuniyat, o'z-o'zidan qoniqish tuyg'usi uning yaratuvchiligini, ijodkorligini barqaror qilgan. Bu g'urur o'zini erkin, baxtiyor, qadr-qimmatini yuksak inson deb his qilish bilan ham bog'lanib ketadi va uning hayotga munosabatidagi quvnoqlikni tug'diradi. Sotvoldi xarakteridagi yumor zamirida uning hayotga muhabbati, o'ziga ishonchi, o'zini hayotning xo'jayini deb his qilishi yotadi. U halol, pok odam, haqiqiy mehnat kishisi sifatida Sotvoldi har qanday nopok ishni, qing'ir qiliqlarni, illatli hodisalarni jinidan battar yomon ko'radi va ularga kinoyali munosabatda bo'ladi. Xullas, Sotvoldi ongi yuksak, ma'naviy dunyosi boy, shaxsiyati mukammal insondirki, uning bu hislatida bugungi sovet kishisining etakchi fazilatlarini ayon ko'rinadi. Husniddin Sharipov qahramon xarakteridagi ijtimoiy sifatlarini shunday samimiyati bilan natijasida Sotvoldi insoniy joziba kasb etadi va o'quvchining ko'z o'ngida muayyan g'oyalarni o'zida mujassam etgan yasama qiyofada emas, o'zining betakror shaxsiyatiga ega bo'lgan jonli inson sifatida nomoyon bo'ladi. Xullos, Husniddin Sharipov Sotvoldi obrazida o'zbek dehqonlarining rivojlangan sotsializm davrida erishgan marralarini, ularning ma'naviy dunyosida bugun chiroy ko'rsatayotgan

yangi ufqlarni aks ettirgan. Sotvoldi obrazining ijtimoiy-estetik qimmati ham mana shunda. Shuning uchun ham “Sotvoldidan salom” dostonini hozirgi o`zbek dostonchiligining rivojida alohida o`rin tutadigan asar deb baholash kerak. Har qanday adabiy asarning qimati, birinchi navbatda, unda va teranligi bilan belgilanadi. Xarakter yaratish esa adabiyotdagi eng qiyin ishdur. Chunki har qanday inson chaqilmagan jumboq, uning ichki dunyosi tilsimotlarga to`la. Uning sirlarini kashf etish uchun yozuvchi favqulodda o`tkir nigohga va yuksak mahoratga ega bo`lishi kerak. Husniddin Sharipov dostonlarida bir-biridan farq qiladigan, turlicha taqdirarga ega bo`lgan va eng muhimi-kitobxon qalbiga kirib borishga qodir xarakterlar galeriyasini yaratdi, ular orqali esa, sotsiolizm davrida shakllangan yangi insonning fazilatlarini tadqiq qildi. Sovet kishisining xarakteri benihoya boy va bitmas-tuganmas material beradi. Husniddin Sharipov buni yaxshi biladi. Doston janrida katta tajriba to`plagan shoir yirikroq epik formalarga ham murojaat qila boshlaydi. Shu tarzda u yangi inson psixologiyasini e`tiqodlarini, yashash prinsiplarini keng ko`lamda aks ettirish imkonini beruvchi she`riy roman janrida ham kuchini sinab ko`rdi:

Buyuk rus shoir A.S.Pushkin “evgeniy Onegin” asari bilan rus adabiyotida she`riy romanning birinchi namunasini yaratdi. Asar mazmuni shu qadar teran, qahramonlar xarakteri shunchalar yorqin ediki, V.G.Belinskiy bu asarni rus hayotining qomusi deb atadi. O`shandan beri ko`pgina shoirlar bu janrda kuch sinab ko`rishga, Pushkin panjasiga panja, urib, she`riy roman yaratishga urinib kelishmoqda. Biroq bu urinishlarning hammasi ham muvaffaqiyatli chiqavergan emas. She`riy roman poeziyaning eng murakkab janridir. Unda hayot epik planda tasvirlanishi, davrning eng muhim jihatlarini ochuvchi konfliktlar markazda turishi, avlodlarning tarixiy taqdirini ifodalaydigan, salmoqli xarakterlar yaratilishi

kerak. Ayni choqda, she`riy romanda lirik tasvirga, lirik chekinmalarga ham keng o`rin beriladi. Bu asarning emitsional iqlimini yaratishga xizmat qiladi va tasvirlanayotgan voqealar hamda taqdirlar to`lqini aniqlantirishga yordam beradi. Odatda she`riy romanning qurilishi, syudjeti va kompozitsiyasi ham xiyla murakkab bo`ladi. Shu sababdan bo`lsa kerak, adabiyotda muvaffaqiyatli chiqqan she`riy romanlar barmoq bilan sanarli darajada. Bizning adabiyotimizda hozirga qadar uchta she`riy roman yaratilgan. Bu qiyin janrga birinchi bo`lib Mirmuhsin qo`l urgan edi. O`z vaqtida uning “Ziyod va Adiba” romani jamoatchilikning e`tiborini qozondi. Uchinchi roman shoir Muhammad Ali qalamiga mansub. “Boqiy dunyo” deb ataluvchi bu she`riy roman ham adabiyotimizda sezilarli voqea bo`ldi. Shu ikki roman oralig`ida Husniddin Sharipovning “Bir savol” degan she`riy romani maydonga keldi. Shoir bir nechta she`riy kitoblar e`lon qilib, besh-oltita doston yozib, muayyan tajriba orttirgachgina bu murakkab janrda kuchini sinab ko`rishga jazm etdi va ikki yillik mehnatdan so`ng, 1972 yilda “Bir savol” ni yozib tugatdi.

Roman avval “Sharq yulduzi” jurnalida bosildi. 1973 yilda alohida kitob holida e`lon qilindi. Muallif “Bir savol” da o`z oldiga juda katta g`oyaviy-estetik vazifa qo`ygan: u o`zbek xalqining bosib o`tgan tarixiy yo`llarini umumlashtirib berishga intilgan. Bu g`oyaviy niyatni amalga oshirish uchun shoirga doston ramkalari tor ko`ringan, chunki dostonda bir yoki bir necha shaxsning taqdirini aks ettirish uchun esa shoir xayolotini cheklamaydigan keng ko`lamli shakl kerak. Shuning uchun ham shoir she`ri roman janriga murojaat qiladi. “Bir savol” ga yozgan so`z boshida Husniddin Sharipov g`oyaviy niyatini ham, asarning xarakterini ham tushunishga yordam beradigan muhim fikr aytgan:

“Men bobdan bobga o`tar ekanman, qahramonlarim sotsiolistik muhitda, inson sifatida qanday shakllana borganini o`quvchiga ko`rsatishim

kerak edi. Chigiz Aytmatov yaratgan Tanaboy, Mixail Sholoxov yaratgan Andrey Sokolov kabi barhayot obrazlar ko`z o`ngimda doim namuna bo`lib turdi. Shuning uchun asarda “turmushaviy” ikir-chikirlardan qochishga, o`zim bilgan vazmin va halol kishilarning qalb go`zalliklarini ochishga harakat qildim”. Albatta, Husniddin Sharipov yaratgan obrazlar ko`lami va salmog`i jihatidan Tanaboy yohud Andrey Sokolovga teng kelolmasliklari mumkin. Lekin shunga qaramay, “Bir savol” romanini 70-yillar adabiyotida o`ziga xos o`rin tutadigan baquvvat asar deb baholash kerak. “Bir savol” romanining syudjeti oddiy o`zbek oilasining taqdiri asosiga qurilgan. Shoir ko`pgina lirik chekinishlarda romanning ijtimoiy fonini yaxshi ko`rsatgan. Yana muhimi shundaki, bu ijtimoiy fon asarda faol estetik “yuk” ka ega – u romanning markaziy ma`naviy-falsafiy muommosini echishda muhim rol` o`ynaydi. Romanning asosiy qahramonning yolg`uz farzandi Xoldor, uning sevgilisi Inoyatxon, uning onasi Hamro, akalari Adham va Hamdamlardir. Bu odamlarning hayoti ming xil iplar orqali jamiyat hayotiga tutashib ketgan. Shu iplarning quvvati yohud zaifligi odamlarning baxtini yohud baxtsizligini belgilaydi, ularning hayotiga ma`no beradi, yohud hayotini beburd ma`nosiz qilib qo`yadi. Har qanday odam o`z hayoti davomida, albatta, bir savolga javob topmog`i kerak. “Bu olamga nechun kelding-u, qandoq qaytding”, - degan savolga to`g`ri javob topgan odamgina hayotda o`z o`rnini topib olishi, hayotidan ishlaridan mamnun bo`lishi, o`zidan qoniqish tuyg`usi bilan yashashi mumkin. Bu ko`hna savol uning javobiga bog`liq ravishda odamning yashash tarzi, hayotiy falsafasi, ma`naviy qiyofasi belgilanadi.

Asarning markaziy qahramonlaridan biri – Abror ancha murakkab hayot yo`lini boshishdan kechiradi. U roman to`qimasiga halol, sofdil, birovga ozor bermagan, boshqalarga yuragida qin saqlamaydigan bir odam sifatida kirib keladi.

Ammo soddaligi tufayli Abror qassob, bazzoz, din peshvolari kabi dushmanlarning tuzog'iga ilinadi-ularning "uyqu dorisiga" o'xshash gaplaridan, karaxt bo'lib ular bilan birga yangi maktab binosiga o't qo'yadi. Shu aybi tufayli Abror "sallalilar safida" diyoridan badarg'a bo'ladi. Shunday qilib Abror o'zining engilligi tufayli umrining go'shalarida daraxt kesib o'tkazadi. Abrorning taqdiri shu nuqtada o'g'li Xoldorning taqdiriga o'xshab ketadi. Xoldor otasiz o'sgan, lekin u etimlikning achchiq alamalarini totib ko'rgan emas. Onasi Xayrixon o'g'lining etimligini bildirmaslik uchun fabrikaga kirib ishlaydi, topgan-tutganini farzadiga baxshida etadi. Har qanday ona kabi Hayrixon ham o'z erkasining kelajagi yorqin bo'lishini istaydi, uning baxtini ko'rishni istaydi. U o'g'lining injener bo'lishini xavas qiladi, el qatori tinch-omon bo'lishini, elu yurtida obro' qozonishini tilaydi. Xoldor bolaligidanoq temir-tersakka havas qo'yadi, maktabda yaxshi o'qiydi, fizika, matematika fanlarini chuqur o'rganadi. Ko'p o'tmay uning bu sohalarda favqullodda iste'dodi borligi ma'lum bo'ladi. U maktabni bitirmasdanoq, juda murakkab ilmiy muammoni hal etib, barcha hohishlarini, farmoyishlarini itoatkorlik bilan bajaradigan Temir odam yasaydi. Lekin shundoq bo'lsa-da, Xoldorga elu yurt, qarindosh-urug'lar, yoru-do'stlar uning favqulodda iste'dodiga uncha tan berishmayotganday tuyuladi. Bu uni istirobga soladi. Uning qalbida xudbinlik manmanlik soxta g'urur junbushga keladi:

Bahs aylasam olimlar bilan.

Temir odam etsam-da bunyod.

Berishmasmi idrokimga tan?

Ko'rmi barcha va yoki karmi?

Nahot guldan azizdir yantoq?

"Toptalgan" g'urur, "qadri yo'qligi" uchun alam tuyg'usi uni kimsasiz sahroyu biyobonga etaklaydi-Xoldor o'zini tushunmagan

odamlarga zarda qilib cho`lga chiqib ketadi. Shu o`rinda mulohazalarimizni bilib, bir masalada roman yangi bosilib chiqqan kunlarga chekinish joizday ko`rinadi. O`sha paytlarda roman haqida yozilgan maqolalarning ba`zi birlarida Xoldorning cho`lu biyobonga bosh olib chiqib ketishi to`g`risida salbiy fikrlar bildirilgan edi. Bunday tanqidchilar shoirni sun`iylilikda ayblashgan, asar syujetida zo`rma-zo`rakilik bor degan da`volar aytishgan edi. Bir qarashda bu da`volar to`g`riday ko`rinadi-hayotda biron kimsaning, buning ustiga maktabni bitirib ulgurmagan, favqulotda qobiliyatli, aql-hushi joyida yigitning jamiyatga, odamlarga, qarindosh-urug`lariga zarda qilib, ulardan arazlab alloqalarga bosh olib ketishi, tarki dunyo qilib yolg`iz hayot kechirishi kamdan-kam uchraydigan narsa. Binobarin, realistik asarga. shunday zo`raki epizodni, sun`iy voqeani kiritib bo`larmikin? Bu asarning hayotiyiligiga putur etkazmasmikin, uning xaqqoniyligiga soya tashlamasmikin?

Abror mashaqqatli badarg`a sharoitida ham halolligini, vijdonini, e`tiqodini yo`qotmay yashaydi. U ixlos bilan mehnat qiladi, daraxt kesadi, shaharlar quradi. Abrorning ma`naviy qiyofasini to`laroq tasavvur qilishi romandagi bir epizodni eslash kerak. Abror bilan birga jazolangan bazzoz va qassob badarg`ada ham mol-davlatga tuzoq qo`yishadi ular yo`lini topib, shahardan aroq olib kelib, qishloqdagilarga qimmatga pullab boylik orttirishadi. Shu tariqa ularning ikki qo`llab qo`ygan sirtmog`i toraygandan torayaveradi va ko`plarni xarob qiladi. Vaqti etib, qassab va bazzoz dunyodan ko`z yumishadi. Shunda Abror odamlarni ularning uyiga olib boradi-da, sandiqni ochib, undagi boylikni ega-egalariga qaytaradi. Bunday halollik odamlarning Abrorga e`tiqodini, hurmatini oshiradi. Abrordagi eng muhim jihat shundaki, u bir lahza ham o`zini katta hayotdan ajralgan, yurtdoshlari tomonidan uloqtirib tashlangan bir kimsa deb his qilmaydi. Abrorning bu harakatida yasamalik yo`q. U vatanparvarligini ko`z-ko`z

qilish uchun, o'zining alohida shaxsligini namoyish qilish uchun shunday qilmaydi. Bu harakat qalb-amri bilan e'tiqod da'vati bilan qilinadi. U albatta, nima qilib bo'lsa-da qahramonlik ko'rsatmoqchi emas, balki halokatli damlarda Vatan nimani buyursa shuni qilishga, ona yurt manfaati nimani taqoza etsa, shuni bajarishga tayyor.

O`q uzarman bersalar qurol,
er qazirman kurak bersalar,
Safarlarda bo`larman hammol,
Agar shuni lozim ko`rsalar.

Abrorning iltimosi qondiriladi-u frontga ketadi. Tabiiyki front hayoti engil bo'lmaydi. Abror bir-biridan mashaqqatli o'ta og'ir sinovlarga duch keladi-u qironli anglarda qatnashib, necha martalar o'limning yuziga tik qaraydi, og'ir yarador bo'ladi, fashistlar qo'lga tushib qoladi, ularning yovuzligini beshafqat vaxshiyligini o'z jismida sinab ko'radi, asirlikdan qochadi, partizanlarga qo'shiladi va nihoyat, ulug' g'alabadan so'ng yorug' yuz bilan uyiga qaytadi. Vatan manfaati uchun kechirilgan u sinovlar jarayonida Abrorning xarakteri toblanadi, e'tiqodi chiniqadi, tabiatidagi internatsionlizm, gumanizm xususiyatlari uning etakchi sifatlariga aylanadi. Og'ir sinovlar tufayli Abror ma'naviy jihatdan ulg'ayadi va chinakam sovet kishisi sifatida shakllanadi. Abrorning murakkab hayot yo'lida mushkul sinovlarga boy taqdiridan shoir muhim xulosa chiqaradi-insonni har qanday sinovlarga bardoshli qiladigan, uning hayot yo'llarida bardam va tetik yurishini ta'minladigan yagona omil e'tiqodining yuksakligi, ma'naviyatining teranligi, Vatanga, ona xalqiga sadoqatidir. Faqat shundagina uning hayoti chuqur ma'no kasb etadi, u insoniy baxtga erishadi. Bu xulosa romanning g'oyaviy konseptsiyasidagi eng muhim tezisni tashkil etadi. Romandagi boshqa qahramonlar taqdiri ham shu fikrni tasdiqlaydi. Bu jihatdan ham ayniqsa, Abrorning o'g'li

Xoldorning taqdiri Abrornikiga butunlay qarama-qarshi. Xoldor kimsasiz sahroga bosh olib ketgandan so`ng aqlining kuchi bilan, sodiq xizmatkori Temir odamning yordami bilan suvsiz cho`lga suv chiqaradi. Har qanday odamni lol qoldiradigan jannatmakon bog` yaratadi, imorat quradi, radio ixtiro etadi, hatto qo`yosh nurlarini energiyaga aylantiradigan “qozon” o`ylab topadi. Uning sevgan yori Inoyat ham Xoldorning yoniga keladi. Ular qiz ko`rishadi va uning ismini Ra`no qo`yishadi. Maskonlariga esa Ra`no obod deb nom berishadi. Qo`ying-chi, ularning osuda va tinch yashashi uchun o`zini baxtiyor his etishi uchun go`yo hamma narsa muhayyo edi. Albatta, Xoldor baxtli bo`lishi mumkin edi. Buning uchun inson hayotining ma`nosi eb-ichishdan, farovon turmush kechirishdan, farzand ko`rishdan, ortiq bo`lmasligi lozim. Lekin moddiy buyumlar, inson atrofini qurshab olgan ashyolar dunyosi o`z-o`ziga hali hech kimning hayotiga teran ma`no ato qilolgan emas. Insonning ma`naviyat olami ham borki, u kemptik bo`lsa, nochor bo`lsa, muayyan qonuniyatlarga bo`ysinmaydi, o`zidan hayotidan, ishidan mamnunlik tuyg`usini his etolmaydi. Haqiqiy insoniy baxt hamisha ijtimoiy mazmunga ega-har bir shaxsning baxtiyorligi unga yaqin odamlarning baxtiga, uning boshqalar bilan hamjihatligiga bog`liq. Inoyatxon kimsasiz cho`lda qizining taqdirini o`ylar ekan “hayolidan baxt ne qilsin bu erda, erkam, el ichida tug`iladi baxt” degan fikr kechadi. Bu fikr avtorning ham xulosasi. Unda roman qahramoni Xoldorning taqdiriga, umrguzaronlik tarziga, yashash falsafasiga shoirning munosabati yaxshi ifodalangan. Xoldor favqulodda iste`dodi tufayli o`zini olamda yakkayu yagona deb biladi. Uning nazarida dunyoda o`ziga teng keladigan biron kimsa yo`q.

Darhaqiqat dunyoda unga

Teng kelguday biror kimsa yo`q.

Borlari ham misoli to`nka
Turaverar ko`zni qilib lo`q.

Modomiki shundoq ekan, Xoldor hammadan yuqori turadi, qolgan odamlarning hammasi Xoldorga sajda qilishi, uning izzatini joyiga qo`yishi, uning poyini o`pishi kerak. Xoldorning bu falsafasi mohiyat e`tibori bilan burjua dunyosida keng tarqalgan “ favqulodda odam”, “kuchli shaxs”, “supermen” haqidagi qarashlarga yaqin turadi. Tabiiyki bunday falsafa aloqa butunlay zid-bu falsafa bilan bizning jamiyatimizda yashab bo`lmaydi, yashaganda ham elning nazariga tushib, o`zini baxtiyor sezib yashab bo`lmaydi. Xoldor falsafasining ildizlari xudbinlik psixologiyasiga borib taqaladi. Bu psixologiya esa Xoldorning yoshligidanoq shakllana boshlagan keyinchalik esa uning qon-qoniga singib ketgan. Xoldor bolaligidanoq onasining mehnati tufayli qiyinchilik ko`rmay, mehnatning qadriga etmay, “qand ustidan bol totib” o`sgan, u bolaligidanoq o`zining aqilli ekanini his qilgan, tengdoshlari “johil” ekanini maroq bilan o`ylagan. Xoldor bolaligidanoq oqilligi, bilimdonligi, topqirligi evaziga astoydil mehnat qiladi, lekin uning mehnati boshqalarning yukini engil qilmaydi, uning kashfiyotlaridan elu yurt bahramand bo`lmaydi. Umuman ko`pchilik manfaatiga xizmat qilish, o`zgalarning turmushini o`ylash, xalqqa, elu yurtga, Vatanga foyda keltirish degan gaplar, Xoldorga yot. Shuning uchun u og`ir mehnatdan so`ng quduq suvida o`z aksini ko`rar ekan, tani titroqqa tushadi, chunki “patak sochi bo`ynini o`rab, ajin quchgan edi ko`zini, peshonada qatlam-qatlam chang, sho`r yiltirar burun ichida”. Bunday qiyofa chindan ham ola bo`jini eslatadi. Xuddi shu bobdan keyingi bobda shoir lirik chekinish qilib, Aleksey Staxanovning mehnatini ko`rsatadi. Bu kichik bobda haqiqiy ijodiy mehnatning-ko`pchilik manfaati yo`lida qilingan mehnatning go`zalligi teran ochilgan. Shoir ikki xil mehnatni

atayin taqqoslaydi va Xoldor mehnatining zaminida yotgan xudbinlik haqida o'zi xulosa chiqarib oladi. Romanda xudbinlik psixologiyasining boshqa qirralari ham tadqiq qilingan. Xoldor sahroda yaxshi hayot uchun kurashadi. Lekin bu kurashdan Xoldorning o'zidan boshqa hech kimga naf etmagani uchun uning kurashini kurash deb, o'zini kurashchi, aktiv faoliyat dono va aqil Xoldor kuvarshshi zarur choqlarda o'zini kurashdan olib qochadi va passivligini oqlaydigan bahonalar topishga qo'rqqqligini oqlaydigan "nazariy asoslar" izlashga intiladi. Eslaylik-Inoyatning onasi qizini Xoldorga berishdan bosh tortadi. Endi sevishganlar o'z baxti uchun kurashmog'i kerak. Inoyat kurashish yo'lini taklif qiladi, Xoldor esa "behudaga bo'lgancha kabob, indimasdan chekingan afzal" deydi. Vatan himoyasi uchun ulug' jang boshlanadi. Bunday chog'da sof vijdonli har bir odam oyoqqa qalqadi, qo'lga qurol oladi yohud g'alaba yo'lida Vatan buyurgan xizmatni o'taydi.

Chunki hayot jomi silkinsa,
Tinch hayotning ko'chda chegasi,
Uxlayolmas vijdonli kimsa,
Bo'lmas yurtning o'rta chekkasi.

Xoldor esa "bo'ron chetlab o'tar, ehtimol, xavfda qolmas bizning ko'ramiz" deya umid qilib yana o'zining tinchini o'ylaydi. Inoyatxon butun mamalakatda hayot-mamot jangi ketayotgan sharoitda chetda turib bo'lmasligini, Xoldor loaqal o'z xotini va farzandini himoya qilishi zarurligini, buning uchun yurtdoshlari sifada bo'lib ularga yordam berishi lozimligini uqdirsa, Xoldor unga rad javobini beradi. Inoyatxonning yurak qa'ridan chiqqan iltijolari xudbinlikning lirik falsafasiga urilib, chil-chil sinadi:

Hisoblab boq – yuz ming maysaga
To'g'ri kelar bir ulkan chinor

Dono kishi o`zin nayzaga
Tutib bermas bekordan-bekor.

Juda qulay, vijdonni allalaydigan, ko`ngilni yupatadigan, o`zini o`ziga oppoq ko`rsatadigan falsafa. Aslida esa zohiran jimjimador ko`ringan bu falsafaning zamirada qo`rqoqlik yotadi. Mana shu tarzda o`z-o`ziga taskin berib, uzini dushman o`qidan asrab, tiriklik toshini sudray-sudray Xoldor yashashda davom etadi. Xalq hayoti undan olisda qaynab-toshib, shiddat bilan olg`a boraveradi. Xoldor hamon birovga foyda keltirishni o`ylamay, faqat ilmni rizo qilish uchun mehnat qilaveradi. Va nihoyat kunlardan birida o`zi yaratgan qozondan o`t chiqib kul bo`ladi. Aslida esa Xoldor o`zining jismoniy o`sishidan ancha avval halokatga ma`lum bo`lgan edi. U xalqqa zarda qilib, elu yurtidan yuz o`girib, Vatanidan ixtiyoriy voz kechib, o`zini-o`zi ma`naviy halokatga mahkum etadi. Boshqacha bo`lishi ham mumkin emas edi-agar u yaratgan bog`ning mevasidan o`zidan boshqa hech kim totmosa, bu bog`ning nima keragi bor? Uning aqli masha`lday xalq qalbini yoritmasa, u aqldan nima foyda? Uning ixtirolari qiziga o`yinchoqlikdan ortiq narsaga yaramasa, bunday olimlikning xalqqa nima zaruri bor? Inson umri birovlarining hojatinga yaramay, faqat bir odamning ko`nglini yoritib o`tgan ekan, bunday umrni baxtiyor deb bo`ladimi? Xoldor bularning barchasini tushunadi, binobarin o`z fojiasining mohiyatini ham, sabablarini ham, anglaydi. U baxt deb bilgan narsa sarob bo`lib chiqadi. Buni anglash esa Xoldorni mag`lubiyatga olib keladi. Sahroni mag`lub etgan Xoldor jamiyatning eng ardoqli ma`naviyat qonunlarini pisand qilmagani uchun, o`zini odamlarga qarama-qarshi qo`ygani uchun, yo`li xalq yo`lidan ayri tushgani uchun engiladi:

Demak tugar Xoldorning umri
Qizchasiga o`yinchoq yasab!
Peshonada bormidi sho`ri?
Necha yolg`iz?
Bunga kim sabab?
Ilm-Olim- A`lam-Ulamo
Xoldorvoy ham, axir, olim-ku!
Bezatmadi xalq tojin, ammo
Qaynoq qumga qorishgan inju!

Shu tarzda muallif ota va o`g`il taqdirida ikki xil yashash tarzini, ikki xil hayot falsafasini mujassamlantiradi va sotsiolistik jamiyatda inson hayotining ma`nosi o`zgarganini har qanday shaxs faqat xalq bilan yurti, Vatani bilan hamnafas, hamqadam, yashagandagina chinakam baxtga erishishi mumkinligini tasdiqlaydi. Romanda “xalq yuksakka etganda parvoz, pastda qolsang juda ham yomon” degan oddiy haqiqat sotsiolistik tuzumning eng muhim ma`naviy-axloqiy qonuniyati ekani yorqin ochilgan. Romanda Abror va Xoldordan tashqari ham anchagina jonli xarakter yaratilgan.

Xayrixon obrazi romandagi boshqa obrazlar silsilasida muhim o`rin tutadi va muallifning asosiy g`oyaviy konsepsiyasini ochishda katta rol` o`ynaydi. Romanning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, Husniddin Sharipov o`z qahramonlari taqdirini, kurashini, ulg`ayish yo tanazzul yo`lini mamlakatimizning katta hayotidan uzib olib tasvirlamaydi. Romanda 20-yillardan 50-yillargacha Vatanimiz, boshidan kechgan eng muhim ijtimoiy-tarixiy hodisalar ham o`z ifodasini topgan. To`g`ri, shoir ularning har qaysini alohida olib, butun tafsiloti bilan ko`rsatmaydi, tarixiy voqealarning badiiy ponoramasini chizmaydi. Bir asar hajmida bunday qilib bo`lmas edi ham. Shoir bu voqealarni ko`proq lirik chekinishlarda, o`z tuyg`ulariga

burkab ko`rsatadi. Natijada ular birlashib, qahramonlar hatti-harakati uchun muayyan ijtimoiy tarixiy fondi vujudga keltiradi. Bu fonda kitobxon sotsiolistik hayotning shiddatli odimlarini ijodkor pafosini yaqqol his qilib turadi. Yana ham muhimi shundaki, romandagi ijtimoiy-tarixiy fon tufayli ayrim-ayrim qahramonlarning taqdiri bir xalqaga birlashadi. Bu fon romanning boshidan oxirigacha o`tdigan Vatan obrazini yaratishda katta rol o`ynaydi. Shoir shu obraz yordamida har bir sovet kishisining baxti ulug` Vatanga bog`liq ekanini, inson Vatan bilan hamqadam, hamnafas yashagandagina, uning taqdiri Vatan taqdiri bilan chambarchas bog`lanib ketgandagina, u Vatanga, elu yurtga, odamlarga naf keltirib yashagandagina hayoti teran ma`no kasb etishi haqidagi g`oyani ochadi. Lirik qahramonning Vatan sha`niga aytgan ehtirosli madhiyasi romanning leytmotivini tashkil qiladi:

Aziz Vatan,
Iqbol Vatani
Qadri baland
Qadri bilandim!
Yuragimga jo etib seni,
Quchog`ingda nurga belandim,
Men oftobda mushukka o`xshab,
Isinmoqni qilmadim o`xshab,
Senga zarra keltiolsam naf,
Baxtiyorman! Shuning o`zi bas!

Bu otashin mirralarda romanning g`oyaviy xulosasi ifodalangan. Shunday qilib, Husniddin Sharipov "Bir savol" romanida lirikasi va dostonlardagi bosh masalani zamondoshimizning xarakterini tadqiq etish masalasini davom ettirdi. Zamondoshimizning tarixiy ulg`ayish yo`llarin

badiiy aks ettirdi, bu yoʻlning qonuniyatlarini ifodaladi. “Bir savol” romani davrimizning eng muhim eng dolzarb maʼnaviy problemalarini koʻtardi.

Yuqorida koʻrib oʻtdikki, Husniddin Sharipovning dostonlari ham uning sheʼriyati singari jozibali, poetik ifodalarga boy, oʻzbek dostonchiligiga qoʻyilgan munosib hissadir. Garchi bu dostonlarda qisman shoʻra tuzimiga moyillik boʻlsa da, ularning maʼna-mazmunida mustaqillik gʻoyalariga mos ohanlar sezilib turadi. Asarlaridagi mana shu xususiyat uchun ham Husniddin Sharipov ijodi qadrlanishga loyiq.

X U L O S A

XX asr o'zbek adabiyoti o'ziga xos qirralari bilan alohida ajralib turadi. Bu davr adabiyoti asosan sho'ra tuzumi davriga to'g'ri kelsa-da, bu adabiyotda rang-rang asarlar yaratildi. Janrlari boyib bordi. Nafaqat o'sha tuzum, balki keyingi avlod kitobxonlariga ham ma'naviy ozuqa bo'ladigan asarlar yaratildi.

Mustaqillikka erishilgan dastlabki yillarda sho'ro davri adabiyotiga qanday munosabatda bo'lish masalasi kun tartibida turdi. Sho'ro davri mafkurasiga yugrilgan asarlar, yoki o'sha mafkura qisman aks etgan asarlarni qabul qilish, uning o'rganish bo'yicha qarama-qarshi fikrlar ancha vaqt davom etdi. Va umumiy xulosa shundan iboratki, sho'ro davri adabiyoti o'rganilishi lozim, uning mustaqillik davriga mos keladigan, xalqimizni, kitobxonlarni milliy qadriyatlar, o'zlikni anglashga yordam beradigan asarlarni o'rganish ular to'g'risida salmoqli ilmiy tadqiqotlar yaratilishi zarurligi ma'lum bo'ldi. M. Qo'shjanov, O.Sharafiddinov, U. Nazarov, U.Normatov, N.Xudayberganov, I. Xaqqul va shunga o'xshash atoqli olimlar sho'ro davri adabiyotiga to'g'ri munosabatda bo'ldilar, uning yaxshi asarlarini o'rganish zarurligi haqida salmoqli fikr bildirib matbuotda chiqish qildilar. Akademik M. Qo'shjanovning "Badiiyatning olmos jilolari" (2001 yil) nomli maqolasi xuddi shunday xarakterdagi, sho'ro davri adabiyotiga munosabat bildirishda qaysi mezonlarni qo'llash to'g'risida yaxshi va to'g'ri yo'nalish beradigan tadqiqotlardan biri bo'ldi.

Demak, sho'ro davri adabiyotini o'rganish, o'rganganda ham milliy qadriyatlar, milliy mafkura manfatlari nuqtai nazaridan o'rganish eng to'g'ri yo'l ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu yo'nalishda o'zbek adabiyotshunosligida qator maqolalar, ilmiy tadqiqot ishlari yuzaga keldi. O'zbek adabiyotining nomdor adablari A.Qodriy, A.Qahhor, Oybek, G'.G'ulom va boshqa adablarning ijodi, ularning turkum asarlari yangi

poetik o`lchovlar nuqtai nazaridan baholanadi, ularning mustaqillik davri o`zbek adabiyotidagi o`rni ham belgilab berildi.

Biroq sho`ro davrida qalam tebratgan, asarlarining katta bo`lagini shu davrida yaratgan hamma ijodkorlar ham adabiy tanqid nazaridan o`tkazildi deb xulosa chiqarishga hali erta. Shu kunlarda ham faol qilib yotgan, lekin ijodi deyarli tanqidning nazaridan chetda qolib kelayotgan shoirlardan biri Husniddin Sharipovdir. Chindan ham uning ijodining salmoqli bo`lagi sho`ro davriga to`g`ri keladi. Uning dostonlari, she`riy kitoblari mutabid tuzum davrida nashr etilgan. Bugungi kunda, mustaqillik zamonida bu asarlarga yangicha yondashish, ularga bugungi kunning talabidan kelib chiqib baho berish masalasi xanuz kun tartibida turibdi. Shuni nazarda tutib biz ushbu malakaviy bitiruv ishimizga H.Sharipov lirikasini tanladik va tadqiqotimizning ikki bobida shoir ijodini bugungi milliy mafkura, adabiyot oldiga qo`yilayotgan talablar asosida o`rganishga harakat qildik.

Umumiy xulosamiz shundan iboratki, H.Sharipov sermaxsul ijodkor. She`rlari ham, dostonlari ham badiiy jihatdan o`quvchilar talabiga javob bera oladi. U yaratilgan lirik qahramonlar, poetik obrazlar mukammiligi bilan alohida diqqatga sazovor. Shoirning har bir she`rida, har bir dostonida davr ruhi, u yaratgan obrazlarda shoirning badiiy mahorati aks etganiga guvof bo`ldik va ularni imkon qadar tahlil qilishga o`rindik.

H.Sharipov she`rlari, dostonlari, adabiyotshunos olimlarimiz e`tirof etganlaridek, ular nafaqat sho`ro tuzumi davri, balki istiqlol yillarida ham kitobxonlarimiz uchun ma`naviyat chashmalaridan biri bo`lib xizmat qilisha ishonamiz. Shoirning istiqlol yillarida yaratgan asarlari ham, kelajakda albatta, alohida tadqiqotlarga mavzu bo`lishiga aminmiz. Sababi, Husniddin Sharipovning mustaqillik yillarida ijod etgan asarlari ma`naviyatimiz chashmalaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. Toshkent, 1999 yil
2. I.A.Karimov. “Turkiston umumiy uyimiz”. Toshkent, 1995 yil
3. I.A.Karimov. “Yuksak ma`naviyat- engilmas kuch”. Toshkent, 2008 yil
4. A.Karimov. “Adabiyotga e`tibor-ma`naviyatga, kelajakka e`tibor”. Toshkent, 2009-yil.
5. Sharafiddinov O. “Ijodini anglash baxti”. Toshkent, 2004 yil.
6. N.Raximjanov. “Mustaqillik davri o`zbek she`riyati”. Toshkent, 2007 yil.
7. X.Sharipov, She`rlar. Saylanma. Toshkent, 2008 yil.
8. X.Sharipov. She`rlar. Toshkent, 1978 yil.
9. K. Quramboev, G.Quramboeva “G`afur G`ulom va adabiy aloqalar” Nukus. Qoraqalpog`iston. 2006 yil
10. F.Salaev, G.Qurbaniyozov “Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so`zligi” Toshkent. 2010 yil
11. Erkin Xudoyberdiev “Adabaiyotshunoslikka kirish” Toshkent. 2002 yil.
12. K. Quramboev “Tarjima va tarjimon ma`suliyati”. Toshkent. 2007 yil

Биринч отанинг китоблари, қолганлари алфавит тартибида